

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

Qo'l yozma huquqida

UDK (372.72:371-3)

INAMOVA INDIRA VALIJONOVNANING

**“Yuzlik mavzusini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan
foydalanish metodikasi”**

Mutaxassisligi: 5A111701-Boshlang'ich ta'lim

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

“Himoyaga ruxsat etilsin”

Magistratura bo'limi boshlig'i

_____t.f.n. dotsent Esanov M

“Himoyaga tavsiya etilsin”

“Boshlang'ich ta'lim metodikasi”

kafedراس mudiri

_____ p.f.n.dots.Sadikova A.V.

Ilmiy rahbar:

_____ped.f.d.,prof.Abdullayeva B.S.

TOSHKENT 2014

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1-BOB. BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	10
1.1.Pedagogik texnologiya tushunchasining nazariy asoslari	10
1.2.Pedagogik texnologiya loyihalari: ilmiy yondashuvlar va yechimlar.....	27
1.3.Boshlang'ich sinf matematika darslarida interfaol metodlari va ularning tavsifi.....	34
Birinchi bob bo'yicha xulosa	43
2-BOB. BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA YUZLIK MAVZUSINI O'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI TATBIQ ETISH METODIKASI.....	45
2.1. Matematika fanini o'qitishda ta'lim texnologiyani tatbiq etishning o'ziga xos jihatlari.....	45
2.2. 1-2 sinf matematika darslarida pedagogik texnologiyalaridan foydalanish.....	67
Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....	94
3-BOB. TAJRIBA - SINOV ISHLARINI O'TKAZISH VA NATIJALAR TAHLILI	95
3.1. Pedagogik tajriba – sinov maqsadi va vazifalari.....	95
3.2. Pedagogik tajriba – sinov natijalari va uning tahlili.....	101
Uchinchi bob bo'yicha xulosa.....	103
XULOSA	106
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	107

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 27 yanvar kuni bo'lib o'tgan qo'shma majlisidagi "Mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustivor maqsadimiz" hamda Vazirlar mahkamasining 2010 yil 29 yanvar kuni bo'lib o'tgan majlisidagi "Asosiy vazifamiz-Vatanimiz taraqqiyotini va xalqimiz faravonligini yanada yuksaltirish" mavzularidagi ma'ruzalari mazmun-mohiyati va undagi xulosalarni o'rganish yuzasidan Vazirlar mahkamasining 2010 yil 23 fevraldagi 101-F –sonli farmoyishi bilan tasdiqlangan tashkiliy tadbirlarni amaliyotga joriy etish jamiyatimizdagi kun tartibidagi bosh masalalardan biridir.[1]

Prezidentimiz o'z ma'ruzasida "mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish ustivor maqsadimiz" degan fikr muloxazalaridan jamiyatimizda barkamol avlodni tarbiyalash boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalardan biri ekanligi gavdalanadi. Ayniqsa, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchlari ta'lim va tarbiyaning tub maqsadi kuchli fuqarolik jamiyatining barpo etilishiga xizmat qilishi asosiy maqsadimiz ekanligi Sharqona tarbiya mazmunida his etilishi zaruriyati mavjuddir.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Barkamol avlod yili" davlat dasturi to'g'risidagi Qarorida mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash yoshlarning o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish bo'yicha qo'yilgan vazifalarda "... ta'lim jarayoniga yangi axborot kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarni, elektron darsliklar, multimediya vositalarini keng joriy etish orqali mamlakatimiz maktablarida, kasb-hunar kollejlari, litseylari va Oliy o'quv yurtlarida o'qitish sifatini tubdan yaxshilash samarali tizimini yanada rivojlantirish" ko'zda tutilganligi dolzarb vazifalarimizdan biridir. [2]

Yurtboshimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch" asarida ta'lim – tarbiya haqida quyidagi fikrlarni

bildirgan. “Ma’naviyatni shakllantirishga bevosita ta’sir qiladigan yana bir muhim hayotiy omil – bu ta’lim – tarbiya tizimi bilan chambarchas bog’liqdir.

Ma’lumki, ota – bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo’lmish ilm – u ma’rifat, ta’lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan”. [3]

Albatta, ta’lim – tarbiya – ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya’ni xalq ma’naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Binobarin, ta’lim – tarbiya tizimini va shu asosda ongni o’zgartirmasdan turib, ma’naviyatni rivojlantirib bo’lmaydi.

Shu bois bu sohada yuzaki, rasmiy yondashuvlarga, puxta o’ylanmagan ishlarga mutloqo yo’l qo’yib bo’lmaydi. Maktab ta’lim – tarbiya masalasi davlat va jamiyat nazoratida bo’lishi asosiy qonunimizda belgilab qo’yilgan. Shu bilan birga, bu keng jamoatchilik, butun xalqimizning ishtiroki va qo’llab – quvvatlashishini talab qiladigan umummilliy masaladir.

Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo’lishi farzandlarining bugungi qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog’liq.

Buning uchun har qaysi ota – ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko’rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo’lgan ongli yashaydigan komil insonlar etib voya yetkazish – ta’lim – tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo’lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta’lim – tarbiya ishini uyg’un holda olib borishni talab etadi.

Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo’lmaydi. Bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi.

Matematika kursi asosiy kattaliklar va geometriya elementlari bilan tanishtirishni nazarda tutadi. Ular imkoniyat darajasiga ko’ra o’quvchilarning son arifmetik amallar va matematik munosabatlar haqidagi tushunchalarni yuqori

darajada o'zlashtirishlariga yordam bera borib, arifmetik bilimlar tizimiga qo'shiladi.

Matematika bolalarda tafakkur, diqqat, xotira, ijodiy tasavvur etish, kuzatuvchanlikni rivojlantirishga imkon beradi.

O'quvchilarda egallagan bilim, o'quv va malakalarini turli xil sharoitlarda qo'llanishga o'rgatishni o'qitishning maxsus masalasi sifatida qarash kerak. Bu – o'quvchilarni politexnik tayyorgarligiga qaratilgan ishning boshlanishidir.

Shu bilan birga bilimlarni qo'llanish ham bolalarning o'quv ishlari samaradorligini oshirishning muhim vositalaridan biridir. Bilim, o'quv va malakalarning ham bolalarning to'la qiymatli o'zlashtirilishiga, ularning o'zgaruvchi sharoitlarda mustahkam qo'llanilishi natijasidagina erishish mumkinligini psixologlar isbotlashdi. Bolalarning maktabda boshlang'ich sinflardan keyingi sinfga o'tishida albatta vujudga keladigan qiyinchiliklar ko'p darajada aynan ana shu asosda bartaraf etilishi mumkin va aksincha, agar o'qituvchi har tomonlama bilimlarga maxsus e'tibor bermasa va bolalarni bir xil turdagi savollarga, topshiriqlarga, ifodalarga masala va misollarni o'rgatib qo'ysa, bu 5 – sinfda fanlar murakkablikni yanada orttiradi.

Hozirgi kunda ta'lim tizimida jumladan boshlang'ich sinf matematika darslarida pedagogik texnologiyalarni qo'llashning nazariy hamda amaliy asoslarni yaratish zarurdir.

Hozirda o'qituvchilarning yuqori kasbiy tayyorgarlikka, pedagogik mahoratga, yuksak ma'naviy – axloqiy fazilatlariga, mafkura borasida chuqur bilimlarga ega bo'lishi, ta'lim – tarbiya ishlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol usullardan samarali foydalanishi davr talabi hisoblanadi.

Yosh avlodning har tomonlama yetuk, bilimli, yuksak ma'naviyatli, barkamol, vatanparvar shaxslar bo'lib yetishishini ta'minlash yo'lida amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlarining eng asosiy bo'g'ini sifatida pedagogik xodimlarning yuqori ilmiy, metodik bilimlarga hamda amaliy ishlash

bo'yicha yuksak mahoratga ega bo'lishlarini ta'minlash yuzasidan zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish hisoblanadi.

Umumiy o'rtata'lim maktablarining boshlang'ich sinfda matematika o'qitish jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish zarur.

Boshlang'ich sinf matematik darslarida pedagogik texnologiyadan foydalanib dars o'tilsa, o'qitish jarayonni takomillashadi. Magistrlik dissertatsiyasining dolzarbligi ana shu bilan asoslanadi.

Magistrlik dissertatsiya mavzusini Boshlang'ich sinf matematika darslarida yuzlik mavzusida zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish metodikasi deb nomladik.

Tadqiqot ob'ekti: Umumta'lim maktablarida boshlang'ich sinfda matematika o'qitish jarayoni.

Tadqiqot predmeti: Boshlang'ich sinf matematika darslarida yuzlik mavzusida zamonaviy texnologiyalaridan foydalanishning uslubiy asoslari

Tadqiqot maqsadi: Boshlang'ich sinf matematika darslarida yuzlik mavzusida zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish metodikasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning maqsadini amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar hal etildi:

- . Pedagogik texnologiyalarni nazariyasining umumiy asoslarini o'rganish.
- . Mavzuga oid adabiyotlarni tahlil qilish.
- . Pedagogik texnologiyalarni va ularning turlarini tahlil etish.
- . Boshlang'ich sinf matematika darslarida yuzlik mavzusida zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish uslubini ishlab chiqish.
- . Ishlab chiqilgan uslubiy tavsiyalar asosida tajriba-sinov ishlarini o'tkazish.

Tadqiqotning ilmiy farazi:

Boshlang'ich sinf matematika darsida yuzlik mavzusini o'qitishda pedagogik texnologiyadan keng foydalanilsa, boshlang'ich sinf matematika darslarini sifat va samaradorligi ortadi.

Tadqiqotning ishlanganlik darajasi.

Texnologiya tushunchasi 60-yillardagi Amerika va G'arbiy Yevropada ta'limni isloh qilinish bilan bog'liq ravishda kirib kelganligi ma'lum. Hozirgacha B. Bluj, J. Koroll, P. Y. Galperin, V. I. Davidov, L. I. Zankov, Charlz, Templ va Jenni Stillarning texnologiyalari mashhurdir. O'qitishni tashkil qilishning texnologik yondashuvlari B. P. Bespalko, G. S. Suxobskoy, T. V. Kudryavsev, M. I. Maxmutov, T. N. Ballo kabi aksariyat psixolog va didaktikachilar ilmiy tadqiqot ishlarni olib borganliklarini aniqladim.

T. N. Ballo "pedagogik texnologiya" tushunchasiga ta'rif berar ekan, uni o'qitish jarayoniga nisbatan topshiriqli yondoshuv, L. V. Zankov, T. Y. Galperin, bosqichli o'qitish, G. K. Selevko hamda boshqa mualliflar esa mazmunli umumlashma sifatida baholaydilar.[42]

Ayni vaqtda pedagogik yo'nalishda faoliyat olib borayotgan ilmiy tadqiqot institutlari, xalq ta'limi muassasalari va oliy o'quv yurtlari oldida o'quv jarayonini loyihalashning eng maqbul, barcha turdagi o'quv muassasalarida shakli, metod va vositalaridan qat'iy nazar tashkil etiladigan ta'lim jarayoni uchun birdek xizmat qiluvchi andozani yaratish maqsadga muvofiqdir. Bu borada muayyan muvaffaqiyatlar ham qo'lga kiritilgan, ular to'g'risidagi ma'lumotlarga biz pedagogik texnologiya va uning mohiyatini ochib beruvchi, chunonchi, B. P. Bespalko, M. V. Klarin, J. G'. Yo'ldoshev, M. O. Ochilov, N. Saidahmedov, K. Zaripov, N. N. Azizxo'jayeva, O'Q. Tolipov, M. Usmonboyeva va boshqalar tomonidan yaratilgan adabiyotlar orqali xabardor bo'lishimiz mumkin. Olimlar pedagogik texnologiyalarni asoslarini o'rganganlar.

Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish masalalari bilan M. I. Moro, A. S. Pchyolko, A. M. Pishkalo, L. I. Skatkin, M. A. Bantova, A. A. Stolyar, B. A. Drozd, A. S. H. Levenberg, N. U. Bikbaeva, R. I. Sidelnikova, G. A. Adambekova, P. I. Sorokin, M. E. Jumaev, Z. G'. Tadjieva, N. A. Xamedova, B. S. Abdullaeva, F. A. V. Sadikova va bir qancha olimlar shug'ullanganlar. N. U. Bikbaeva, R. I. Sidelnikova, G. A. Adambekova "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" metodik ko'llanmasida (Toshkent: O'qituvchi 1996 yil) o'qitish metodlari

ko'rsatib berilgan, M.E.Jumaev, Z.G'.Tadjieva "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" (Toshkent: "Fan va texnologiya" 2005-yil) o'quv qo'llanmasida ham boshlang'ich sinflarda foydalaniladigan o'qitish metodlari ochib bergan. G.M.Yaxshibaevaning magistrlik dissertatsiyasida boshlang'ich sinflarida geometrik materialni o'rgatishning shakl, vosita va metodlari zamonaviy talablari asosida qayta ko'rilib, to'ldirilgan. M.E.Xusanovaning magistrlik dissertatsiyasida boshlang'ich sinf matematika darslarida pedagogik texnologiyalaridan foydalanish metodikasi, ya'ni pedagogik texnologiya haqida tushuncha, uning xususiyatlari, interfaol metod, ularning turlari va boshlang'ich sinflarda ba'zi bir darslarni interfaol metod asosida o'qitish metodikasi bayon etilgan.[58] U.M.Sultanovaning magistrlik dissertatsiyasida boshlang'ich sinf matematika darslarida masala ustida ishlashni takomillashtirish, ya'ni boshlang'ich sinf matematika darslarida masala ustida ishlashni nazariy va metodik asoslari, masalalarni yechishda informatsion va innovatsion yondashuvni qisman ko'rsatilgan.[57] B.S.Abdullayeva, A.V.Sadikova, M.I.Toshpo'latovalarning o'quv-metodik qo'llanmasida boshlang'ich sinflarda matematika darslarida geometrik materiallarni o'rgatishda n amaliy ishlarni tashkil etish metodikasi bayon etilgan.[58] Bizning tadqiqotimizda boshlang'ich sinf matematika darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodikasini o'rganish ko'zda tutilgandi.

Men o'z ilmiy tadqiqot ishimda ulardan farqli ravishda davr talabi, zamon innovatsion metodlarni qo'llagan holda metodika ba'zi yangilikni kiritishni maqsad qilib qo'ydim.

Tadqiqot metodlari: Ilmiy tadqiqot va ilmiy-pedagogik adabiyotlar hamda me'yoriy, o'quv-dasturiy hujjatlarni tahlil qilish, o'quv jarayonini kuzatish, so'rovnoma, testlar o'tkazish, eksperiment uslublari, pedagogik tajriba-sinov natijalariga matematik-statistik uslublaridan foydalanib ishlov berish va umumlashtirish.

Tadqiqotning metodologik asoslari: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida" gi qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun darsliklar va o'quv-metodik komplekslarni tanlov asosida tanlab olish tartibi to'g'risida Nizom, umumiy o'rta ta'limni yanada takomillashtirishni ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishga oid yondashuvlari, tadqiqot mavzusiga oid ilmiy-pedagogik, falsafiy, psixologik manbalar.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

boshlang'ich sinf matematika darslarida yuzlik mavzusini o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodikasi ishlab chiqish

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati: Boshlang'ich sinf matematika darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish bo'yicha ishlab chiqilgan uslubiy tavsiyalar, taklif etilgan fikr-mulohazalardan yangi avlod darsliklar, metodik qo'llanmalar yaratishda foydalanish mumkin.

Magistrlik dissertatsiyasi kirish, 3 bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'ladi.

1-BOB. Boshlang'ich sinf matematika darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari

1.1. Pedagogik texnologiya tushunchalarning nazariy asoslari

Ta'lim jarayoni nihoyatda murakkabdir. Ta'lim samaradorligi pedagog va o'quvchi faolligiga, ta'lim vositalarining mavjudligiga, ta'lim jarayonining tashkiliy, ilmiy, metodik mukammalligiga, jamiyatda ilmiy kishilarga bo'lgan ehtiyojga va boshqa hali aniqlanmagan omillarga bog'liq. Jamiyat o'zining ijtimoiy-siyosiy ehtiyojlari asosida ta'lim samaradorligi yuqori bo'lishini talab etadi.

O'zbekistonda bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiy strukturalar yaratilayotgan hozirgi kunda keng, chuqur bilimli va bilimlarni amalda qo'llay oladigan shaxslarga talab kuchayib bormoqda. Bilimdon va tadbirkor, ijtimoiy faol shaxs jamiyat hayotida, mehnatda o'zining o'rnini topadi. O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimov "...shuni yaxshilab tushunib olishimiz zarurki, jamiyatimizni yanada demokratlashtirish va fuqarolik institutlarini shakllantirish, avvalo, aholi siyosiy, ijtimoiy va davlat hayotida nechog'lik faol ishtikor etishi bilan uzviy bog'liq." deb ko'rsatdi. Bunday faollik vujudga kelishi uchun bilimdon va harakatchan, milliy istiqlol g'oyasiga sodiq bo'lgan shaxsni shakllantirish kerak.

Ta'limning barcha bo'g'inlarini shunday tashkil etish kerakki, u yoshlarga chuqur va asosli bilim berish bilan birga keng qamrovli fikrlashga o'rgatsin. Ta'lim jarayonida o'quvchida mustaqil bilim olish ehtiyoji shakllanib borish hozirgi kunning talabidir.

Pedagogik amaliyot va tadqiqotda qator ish usullari qo'llab ko'rildi. Ta'limni muammoli tashkil etish, ta'limda o'quvchilarni faollashtirish hamkorlik pedagogikasi, tayanch so'zlarida asoslanish, ta'limni optimallashtirish va boshqalar tajribadan o'tdi. Lekin bu pedagogik vositalar ayrim o'qituvchilarda

samarali natijani bersa ham, uni ommaviy yo'sinda ta'lim tizimida kiritib bo'lmaydi.

Hozirgi kunda pedagogik matbuot sahifalarida, maorif xodimlarining nutq va ko'rsatmalarida zamonaviy pedagogik texnologiyani joriy etish haqida fikrlar bayon etilmoqda. Zamonaviy pedagogik texnologiya bo'yicha turlicha fikrlar ilgari surilgan.

Zamonaviy pedagogik texnologiyaning asosiy mohiyati ta'limda o'quvchilarni qiziqtirib o'qitish va bilimlarni to'liq o'zlashtirishga erishishdir. Ta'limda berilayotgan bilimlarni o'quvchilarning aksariyat ko'pchilik qismi puxta o'zlashtirishi zamonaviy pedagogik texnologiyani joriy etilishining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Bilimni ta'lim olayotgan barcha o'quvchi to'liq o'zlashtirishiga erishish mumkinmi?

Chet el olimlarining tekshirishicha ta'lim olayotgan guruhdagi 5% o'quvchi dastur talabidan ilgarilab bilim olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu guruhdagi 5% o'quvchining esa dasturni umumiy tartibda o'zlashtirishga kuchi yetmaydi. Demak, o'qituvchi sinfdagi 95% bola bilan muvaffaqiyatli ishlay oladi. Dasturdagi bilimlar hajmining 70%ni o'quvchilarning barchasi o'zlashtirsa, to'liq o'zlashtirishga erishildi, deb hisoblash mumkin. Chunki, olimlarning fikricha shu darajada bilimga ega bo'lgan o'quvchi qolgan ma'lumotlarni mustaqil o'zlashtirish imkoniyatiga erishadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiya ta'lim jarayonida o'quvchiga zug'um qilmay, ularni qiziqtirib o'qitishni, o'quvchilar o'zidagi barcha fikrlarini bayon etishiga imkoniyat yaratishni tavsiya etadi. Zamonaviy pedagogik texnologiya bilim olish jarayonida o'quvchilar yoqimli ruhiy holat bo'lishini, qiziqib ishlashini tashkil etishni talab etadi. Bu texnologiya asosida dars o'tishda eng asosiy talabi o'quvchining hayotiy tajribasi, avvalo o'zlashtirgan bilimlari va qiziqishlari asosida bilim berishni ko'zda tutadi. Zamonaviy pedagogik texnologiya o'rganilayotgan soha bo'yicha o'quvchilarda bilim yetarlicha

bo'lmagan holda ham o'quvchida salbiy kechinmaga o'rin qoldirmaslikni, bu bolaning aybi emasligini tan olishni talab etadi. Faollik ko'rsatilsa, bilimlarni o'zlashtirib olishga o'quvchilarda ishonch hosil qilishni tavsiya etiladi.

Mavjud pedagogika fanida dars jarayoniga oid berilgan ma'lumotlarda e'tibor ko'proq yangi bilimlarni bayon etish, uni mustahkamlash va natijasini hisobga olish qaratilgan. Bilim berishda o'quvchining avvalgi bilimlari, hayotiy tajribasi yetarlighi hisobga olinmagan. Dars rejasida avval o'tilgan mavzuni yakunlab, yangi mavzuga bog'lash taklif etilgan. Lekin shu yangi o'tilayotgan mavzu bo'yicha bolaning bilimini aniqlash, mavzuga asos bo'ladigan dastlabki ma'lumotlarni berish yetarlicha amalga oshirilmagan.

Pedagogik texnologiya o'quvchilarning o'rganilayotgan soha bo'yicha bilimlarini esga tushirish, jonlantirish yangi bilimini o'zlashtirishiga asos deb ko'rsatadi. Bilimlar va tayyorgarlikni aniqlash o'quvchini faollashtirishga va olgan bilimini o'zlashtirishiga ijobiy motivni keltirib chiqaradi.

Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida so'zlagan nutqida ham "O'qituvchi bolalarimizga zamonaviy bilim bersin, deb talab qilamiz. Ammo, zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiyning o'zi shunday bilimga ega bo'lishi kerak... Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashga o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar,"- dedilar. Shu sababli zamon talablariga to'liq javob bera oladigan ilg'or pedagogik texnologiyalarni uzluksiz matematik ta'lim tizimida ham joriy qilish ishlari hozirgi davr talabidir.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida" gi Qonunida nazarda tutilgan ta'lim tizimining yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi, erkin shaxslarni shakllantirishga qaratilgan. Bunda jamiyat o'zining qadr- qiymatini chuqur anglaydigan, irodasi kuchli iymoni butun hayotda aniq maqsadlarga intiluvchan insonlarni tarbiyalash imkoniyatiga ega bo'ldi. Ta'lim tizimini isloh qilish vazifalari muvaffaqiyatli hal etilsa, ijtimoiy – siyosiy iqlim keskin

o'zgaradi, odamlar ongida demokratik qadriyatlar qaror topadi. Inson jamiyatdagi o'rnini ongli ravishda o'zi belgilaydi.

Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi bo'lgan, ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Og'ir iqtisodiy, ijtimoiy – siyosiy qiyinchiliklarni yengib o'tib, taraqqiyot yo'liga kirgan mamlakatimizda ta'lim tizimini isloh qilish, unga rivojlangan mamlakatlarning ilg'or texnologiyalarini joriy qilish, milliy qadriyatlarimizni singdirgan holda ta'limni tashkil etish, bu jarayonni puxta va samarali amalga oshirish ishlari bugungi kunda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Bizga yaxshi ma'lumki, har bir nazariya o'zining metodologik asoslariga ega bo'ladi. Ta'lim texnologiya nazariyasining ilk g'oyalari ilgari surilgan davrlardayoq mazkur nazariyaning asoslari ham yaratila boshlagan. Ta'lim texnologiyasi nazariyasining umumiy asoslarini uning maqsadi, mazmuni, vazifalari, tamoyillari, ob'yektiv (tashqi) hamda sub'yektiv (ichki) omillari, ob'yekti, asosiy tushunchalari, mezonlari va boshqalar tashkil etadi.

Ta'lim texnologiyasi nazariyasining umumiy asoslari mohiyati xususida so'z yuritish uchun "Ta'lim texnologiyasi" tushunchasining tub ma'nosini anglash talab etiladi.

"Texnologiya" yunoncha so'z bo'lib, "techne" – mahorat, san'at hamda "logos"- tushuncha, ta'limot so'zlarining birikmasidan hosil bo'lgan. "Ta'lim texnologiyasi" tushunchasi esa lug'aviy jihatdan (inglizcha " an educational technology") ta'lim (o'qitish) jarayonini yuksak mahorat, san'at darajasida tashkil etish borasida ma'lumotlar beruvchi fan (yoki ta'limot) ma'nosini anglatadi.

Pedagogik texnologiya tushunchasi keng ko'lamli, serqirra tushuncha bo'lib, u ta'lim-tarbiya amaliyotini rivojlantirish ehtiyojlari asosida kelib chiqqan va hozirda pedagogika, psixologiya fanlarida o'z o'rniga ega.

Ta'lim –tarbiya faoliyatining mazmuni, maqsad va vazifalari davrlar o'tishi bilan kengayib borishi natijasida uning shakl va usullari ham takomillashib bormoqda. Hozirda inson faoliyatining asosiy yo'nalishlari shu faoliyatidan

ko'zda tutilgan maqsadlarni to'liq amalga oshirish imkoniyatini beruvchi yaxlit tizimga, ya'ni texnologiyaga aylanib bormoqda. Shu asosda ta'lim – tarbiya sohasida so'nggi davrda pedagogik texnologiya amal qila boshladi.

Ishlab chiqarishdagi texnologiyada turli materiallarga ishlov berish tegishli kasb ustalari tomonidan amalga oshiriladi. Pedagogik texnologiyada esa ishlov beriladigan material o'quvchi (ta'lim oluvchi)ning aqliy, ruhiy, axloqiy sifatлари bo'lib, ularga o'qituvchi, tarbiyachi tomonidan ma'lum maqsadlarga erishish yo'lida har turli ta'sirlar o'tkaziladi.

Pedagogik texnologiya tushunchasi XX asrda paydo bo'lib, quyidagi rivojlanish bosqichlaridan o'tib kelmoqda.

Dastlabki bu tushuncha 1940-yillardan 50-yillar o'rtasigacha “ta'limda texnologiya” deb qo'llanib, o'quv jarayonida audiovizual texnika vositalaridan foydalanishni ifoda qilgan.

Pedagogik texnologiya tushunchasi dastlab XX asrning o'rtalarida AQSHda qo'llana boshlangan. Bunda “pedagogik texnologiya” va “ta'lim texnologiyasi” ifodalari faqat texnika vositalari yordamida o'qitishga nisbatan qo'llangan edi.

Oradan vaqt o'tishi davomida shu ifodalarni qo'llash darajasi kengayib borishi natijasida ularning ma'nolari ham tegishlicha o'zgarib bordi. Hozirga kelib esa pedagogik texnologiya ifodasining zamonaviy ilmiy asoslangan yagona ta'rifini belgilash maqsadida bir qancha yirik olimlar tomonidan turli fikrlar va xulosalar asoslab berildi.

50-yillar o'rtasidan 60-yillargacha “ta'lim texnologiyasi” ifodasi qo'llanilib, bunda programmalashtirilgan ta'limni nazarda tutilgan.

70-yillarda “pedagogik texnologiya” ifodasi qo'llanilib, u avvaldan loyihalashtirilgan va aniq belgilangan maqsadlarga erishishni kafolatlovchi o'quv jarayonini bildirgan.

1979-yilda AQSHning Pedagogik kommunikatsiyalar va texnologiyalar assotsiatsiyasi tomonidan pedagogik texnologiyaga quyidagicha ta'rif berilgan edi: “Pedagogik texnologiya bilimlarni o'zlashtirishning hamma jihatlarini qamrab

oluvchi muammoni tahlil qilish va rejalashtirish, ta'minlash, muammoning yechini baholash va boshqarish uchun odamlar, g'oyalar, vositalar va faoliyatni tashkil qilish usullarini o'z tarkibiga oladigan kompleks, integrativ jarayondan iborat...".

80-yillarning boshidan pedagogik texnologiya deb ta'limning kompyuterli va axborot texnologiyalarini yaratishga aytilgan. [44]

Shu aytilganlar asosida pedagogik texnologiya bir jihatdan o'quv jarayonida texnika vositalaridan foydalanishning kengayib borishini ifodalab, uni ta'limdagi, o'qitishdagi texnologiya deb nomlash mumkin bo'lsa, ikkinchidan, ta'lim texnologiyasi yoki pedagogik texnologiya degan nom o'quv jarayonining o'zini qurish texnologiyasini bildiradi deb xulosa chiqarish mumkin.

Pedagogika oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, hozirgi davrda pedagogik texnologiya tushunchasi ta'lim amaliyoti va nazariyasi ilmidan mustahkam o'rin egalladi, lekin uni pedagogikaning mukammal lug'atlari (tezaurus)dagi o'rni hali noma'lumligicha qolib kelmoqda.

Pedagogik texnologiya tushunchasining shakllanishi va rivojlanishi tarixida turli qarashlar mavjud bo'lgan: u texnik vositalar haqidagi ta'limot deb, hamda o'qitish jarayonini loyihalashtirilgan holda izchil va muntazam tashkil etish deb talqin qilingan. Hozir pedagogik texnologiyalarning bir qancha ta'riflari mavjud.

V.P.Bespalko pedagogik texnologiyani amaliyotga tatbiq qilinadigan muayyan pedagogik tizim loyihasi sifatida belgilaydi. U pedagogik tizim texnologiyalar ishlab chiqish uchun asos bo'ladi, deb hisoblaydi. Bunda asosiy diqqat o'quv –pedagogik jarayonni oldindan loyihalashga qaratiladi, didaktik vazifa va o'qitish texnologiyalari tushunchasidan foydalaniladi. Shu tariqa V.P.Bespalko o'quv jarayonini loyihalash g'oyasini ilgari suradi. Afsuski, hozirgi qadar pedagogik texnologiya va loyiha tushunchalari haqida aniqlik yo'q.

Pedagogik texnologiya ta'lim jarayoniga jadallik bilan kirib borayotgan bo'lsa ham, uning maqomi noaniqligicha qolib ketmoqda. Tadqiqotchilarning ishlarida fan va amaliyot oralig'idan o'rin egallamoqda. [42]

N.F.Talizina har bir pedagog real pedagogik jarayonni tashkil etishdan oldin o'quv jarayoni haqida texnologik darajada bilimlar tizimini bilib olgan bo'lishi shart deb hisoblaydi. U fan va amaliyot oralig'ida tamoyillarni olg'a suruvchi, metodlar ishlab chiquvchi, ularni izchil qo'llash kabi masalalar bilan shug'ullanuvchi alohida fan bo'lishi kerak, deb hisoblaydi. Ularsiz pedagogik jarayon texnologiya real o'qitish jarayoni sifatida asoslanmay qoladi.

Ayrim mualliflar o'qitish texnologiyalariga fan va san'at oralig'idagi fan deb qaraydilar, boshqalari uni loyihalash bilan bog'laydilar.[42]

Shunday qilib, bir yondashuvda o'qitish texnologiyalari o'qitishning barcha vositalarini qamrab olgan qandaydir jihozlash sifatida ham belgilanadi. Unda texnologiya o'quv jarayonini texnikalashtirishni taqozo qiladi.

Boshqa yondashuvda texnologiyaga ta'lim amaliyotini yangi yoki zamonaviylashtirilgan bilimlar bilan ta'minlashning usuli sifatida qarashga imkoniyat beradi. Bunda texnologiyaga ta'limning ilmiy tamoyillari va amaliyotini tatbiq etish sifatida qaraladi.

Texnologiya tushunchasi 60-yillardagi Amerika va G'arbiy Yevropada ta'limni isloh qilinishi bilan bog'liq ravishda kirib keldi. B.Blui, J.Koroll, P.Y.Galperin, V.I.Davidov, N.A.Menchinskaya, Z.I.Kalmikova, L.I.Zankov texnologiyalari mashhur. O'qitishni tashkil qilishning texnologik yondashuvlari V.P.Bespalko, N.F.Talizina, L.M.Fridman, Y.N.Kulyutkina, G.S.Suxobskoy, T.V.Kudryavsev, M.I.Maxmutov kabi aksariyat psixolog va didaktikachilarga taalluqlidir.

Alohida qayd etib o'tish joizki, ayni vaqtda ta'lim texnologiyasi tushunchasini mantiqiy –g'oyaviy jihatdan izohlash borasida yagona fikr mavjud emas. Yuqorida qayd etilgandek, pedagogik texnologiya nazariyasi o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab asoslanib kelinayotgan bo'lsada, aynan “pedagogik texnologiya” tushunchasiga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjudligini ko'rib turibmiz.

So'nggi o'n besh yil davomida nutqimizda "pedagogik texnologiya", "zamonaviy pedagogik texnologiya", "o'qitish texnologiyasi" kabi tushunchalar keng qo'llanmoqda. Aksariyat pedagoglar "ta'lim texnologiyasi" hamda "pedagogik texnologiya" tushunchalari mazmunan bir ma'noni anglatishini ta'kidlamoqdalar. Bizning nazarimizda bunday yondashuv u qadar to'g'ri emas, hamda bu borada yagona to'xtamga kelish muhimdir.

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish g'oyasi G'arbiy Yevropa hamda AQSH da yaratilgan edi. Bizga ma'lumki, G'arbiy Yevropa mamlakatlari va AQSHda "Pedagogika" fani mavjud emas, shu bois "pedagogik faoliyat", "pedagogik tizim", shuningdek, ularga bog'liq ravishda yuzaga keluvchi "pedagogik texnologiya" tushunchasi ham iste'molda yo'q.

Nomlari qayd etilgan mamlakatlarda shaxsga ilmiy bilimlarni berish jarayoni "ta'lim jarayoni" sifatida nomlanadi, shaxsga bilimlar berish, uning ma'lumotini oshirish, ta'lim samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi fanlar majmui "Metodika" deb yuritiladi. Metodika fanlarini o'qitishda asosiy e'tibor ta'lim sifatini yaxshilab, uning samaradorligini ta'minlashga qaratiladi. O'zbekiston Respublikasi (shu jumladan, MDH mamlakatlari) ta'lim tizimi amaliyotida o'qitilib kelinayotgan "Pedagogika" fanining predmeti shaxsni shakllantirish, uning kamolotini ta'minlashga yo'naltirilgan ta'limiy hamda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish jarayonining mazmunidan iboratdir. Ya'ni, shaxsning yetuk kamoloti ikki muhim faoliyat –ta'limiy va tarbiyaviy faoliyat jarayonining samarasi, natijasi sifatida namoyon bo'ladi. Ayni o'rinda "pedagogik texnologiya" hamda "metodika" tushunchalarining tavsifi, o'ziga xos jihatlarini yoritish maqsadga muvofiqdir.

T.N.Ballo "pedagogik texnologiya" tushunchasiga ta'rif berar ekan, uni o'qitish jarayoniga nisbatan topshiriqli yondashuv, L.V. Zankov, T.Y.Galperin, V.I.Davidovlar bosqichli o'qitish, G.K.Selenko hamda boshqa mualliflar esa mazmunli umumlashma sifatida baholaydilar. P.Mitchelning nuqtai nazariga ko'ra pedagogik texnologiya barcha jihatlariga ko'ra o'ziga xos va samarali natijalarni

qo'lga kiritish imkonini beruvchi pedagogik tizimni tashkil etish bilan bog'liq holda ta'lim tizimi doirasida olib borilayotgan tadqiqot nazariyasi va amaliyotning muayyan tarmog'idir. S.K.Islamgulova esa quyidagi qarashni ilgari suradi: texnologik loyihaga asoslangan ta'lim jarayonini tashkil etish usuli bo'lib, u avvaldan belgilangan muayyan qoida va talablarga javob beradi. Quyida ayrim tadqiqotchilarning "pedagogik texnologiya" tushunchasiga bergan ta'riflarini keltiraman.

Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida shaxs ijtimoiylashuvini ta'minlovchi yetakchi omil sifatida ta'lim jarayoni e'tirof etilsa, biz shaxsning shakllanishida ta'lim hamda tarbiya jarayoni birdek ahamiyatga ega ekanligiga urg'u beradi. Aksariyat hollarda esa tarbiya jarayoni bu borada ustuvor bo'lishi lozim, chunki o'ziga axloqiy xislatlarni namoyon eta olgan shaxsgina ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish jarayonida ular mazmunining ijobiy xususiyat kasb etishni ta'minlaydi, axloqiy insongina ta'lim (bilim)ni qadrlay oladi, zero, axloqning asosiy kategoriyalaridan biri ham bilimlilik sanaladi, degan g'oya mavjud.

"Ta'lim texnologiyasi" tushunchasi "ta'lim metodikasi" tushunchasiga nisbatan kengdir.

Ta'lim metodi –o'quv jarayonining majmuaviy vazifalarini yechishga yo'naltirilgan o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati usuli bo'lsa, ta'lim metodikasi esa muayyan o'quv predmetini o'qitishning ilmiy asoslangan metod, qoida va usullari tizimini tavsiflaydi.

Ta'lim texnologiyasi –ta'lim maqsadiga erishish jarayonining umumiy mazmuni, ya'ni, avvaldan loyihalashtirilgan ta'lim jarayonini yaxlit tizim asosida, bosqichma –bosqich amalga oshirish, aniq maqsadga erishish yo'lida muayyan metod, usul va vositalar tizimini ishlab chiqish, ulardan samarali, unumli foydalanish hamda ta'lim jarayonini yuqori darajada boshqarishni ifodalaydi.

O'qituvchini samarali faoliyat ko'rsatishga undovchi darsning metodik ishlanmasidan farqli o'laroq, ta'lim texnologiyasi o'quvchilar faoliyatiga nisbatan yo'naltirilgan bo'lib, u o'quvchilarning shaxsiy hamda o'qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatlarini inobatga olgan holda, o'quv materiallarini mustaqil o'zlashtirishlari uchun zarur shart –sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi.


Pedagogik texnologiyaning markaziy muammosi – o'quvchi shaxsini rivojlantirish orqali ta'lim maqsadiga erishishni ta'minlashdan iborat.

“Ta'lim texnologiyasi” xususida yaratilgan adabiyotlarda ushbu tushunchaga berilgan ta'riflarga asoslangan holda ushbu tushunchani quyidagicha sharhlangan : Pedagogik texnologiya muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo'naltirilgan hamda ushbu maqsadning natijalanishini kafolatlovchi pedagogik faoliyat jarayonining mazmunidir.

Pedagog olim V.P.Bespalko pedagogik tizimning pedagogik texnologiyaning asosi ekanligini e'tirof etgan holda uning quyidagi unsurlaridan iboratdir deya ta'kidlaydi:

1. O' quvchi ;
2. ta'lim –tarbiyaning maqsadi;
3. ta'lim –tarbiya mazmuni;
4. o'quv jarayoni;
5. o'qituvchi yoki texnik vositalar;
6. ta'lim –tarbiyaning tashkiliy shakllari


Xalq xo'jaligining moddiy ishlab chiqarishga asoslangan sohalarida qo'llanilayotgan texnologiyalar mohiyatini o'rganish hamda muammo doirasida nashr etilgan risolalar mazmuni bilan tanishish “pedagogik texnologiya” ta'lim – tarbiya faoliyatining yaxlit jarayoni to'g'risidagi fan ekanligini e'tirof etish imkonini berdi. Pedagogik texnologiyaning quyidagi tarkibiy unsurlari uning asosini belgilashga xizmat qiladi:




6-shakl. Pedagogik texnologiyaning tarkibiy unsurlari

Yuqoridagi fikrlarga muvofiq ta'lim texnologiyasining tarkibiy tuzilmasi quyidagicha namoyon bo'ladi.

Bizga yaxshi ma'lumki, tarbiya jarayoni uzoq muddatli, murakkab, uzluksiz bo'lib u o'ziga xos xususiyatlarga ega. Garchi zamonaviy ta'lim texnologiyasi o'quvchining ta'lim jarayonidagi yetakchilik rolini yoqlayotgan bo'lsa-da, tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchi asosiy mavqeini egallay olmaydi. Chunki unda xarakter, dunyoqarash yetarlicha shakllanmagan bo'lib, u bu borada tarbiyachining yordamiga ehtiyoj sezadi. Shu bois tarbiya texnologiyasi ham mantiqiy, ham tarkibiy jihatdan ta'lim texnologiyasidan farq qiladi.



7-shakl. Ta'lim texnologiyasining tarkibiy tuzulmasi.



8-shakl. Tarbiya texnologiyasining tarkibiy tuzulmasi.

Tarbiya jarayonining mohiyati, qonuniyatlari hamda o'ziga xos jihatlari xususidagi mavjud nazariy va amaliy g'oyalarga, pedagogik bilimlarga tayangan holda tarbiya texnologiyasining tarkibiy qismlarini quyidagicha belgilandi:

- 1) tarbiya jarayonining umumiy loyihasi;
- 2) tarbiyani tashkil etishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj (rag'bat);
- 3) tarbiya maqsadi;
- 4) tarbiya mazmuni (shakl, metod, usul va texnik vositalar);
- 5) o'qituvchi (tarbiyachi) faoliyati ;
- 6) o'quvchi (tarbiyalanuvchi) faoliyati;
- 7) tarbiya samarasi (natija).

Ushbu fikrlar asosida tarbiya texnologiyasining tarkibiy tuzilmasi tasvirda quyidagicha namoyon bo'ladi.


Pedagogik texnologiya o'zida quyidagi xususiyatlarni namoyon etadi:

1. Pedagogik texnologiya pedagogik jarayonni takomillashtirish, optimallashtirishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojni qondirish omili sanaladi.
2. Pedagogik texnologiya didaktik hamda tarbiyaviy xarakterdagi, shuningdek, ta'lim –tarbiya jarayonini samarali, mahoratli tarzda tashkil etish borasidagi nazariy hamda amaliy bilimlar majmui, metodologik fan sifatida namoyon bo'ladi.
3. Pedagogik texnologiya ta'lim –tarbiya jarayonining umumiy mohiyatini aks ettiruvchi yaxlit jarayondir.
4. Pedagogik texnologiya yo'naltiruvchanlik vazifasini bajaradi, ya'ni, u shaxsni rivojlantirish, tarbiyalash, shakllantirish uchun xizmat qiladi.
5. Pedagogik texnologiya - shaxsiylik xususiyatiga ega bo'lib, muayyan texnologiyalarni ta'lim – tarbiya jarayonida qo'llashga nisbatan yagona, qat'iy, me'yoriy (standart) talablar qo'yilmaydi. Har bir pedagog u faoliyat yuritayotgan ta'lim – tarbiya muhitining xususiyatlari, mavjud ichki va tashqi shart – sharoitlarini inobatga olgan holda muayyan texnologik yondashuvni amalga oshirish imkoniyatiga ega.

6. Pedagogik texnologiya o'zida ta'lim, tarbiya va shaxs taraqqiyoti
(kamoloti) birligini ifoda etadi. [43]

Pedagogik texnologiyaning asosiy maqsadi komil shaxsni shakllantirish uchun poydevor bo'lgan pedagogik jarayonni takomillashtirish, insonparvarlashirish, o'quvchining mustaqilligini ta'minlash, o'qitish jarayonida texnik vositalar imkoniyatlaridan samarali foydalanishga erishishdan iborat.

Pedagogik texnologiyani qo'llash jarayonida quyidagi vazifalar hal etiladi:




9-shakl. Pedagogik texnologiyaning asosiy vazifalari

Mazkur vazifalarning ijobiy hal etilishi quyidagi shartlarga amal qilinishiga bog'liq:

1. Mavjud shart-sharoitlarni inobatga olgan holda faoliyatni tashkil etish.
2. O'quvchi (tarbiyalanuvchi)larning yosh, fiziologik, psixologik hamda shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish.
3. Ta'lim (tarbiya) jarayonini demokratlashtirish va insonparvarlashtirish.
4. O'quvchi (tarbiyalanuvchi)lar faoliyatini ob'yektiv nazorat qilish va baholash.
5. Xususiy fanlarni o'qitish jarayonida imkon qadar, albatta, samarali ravishda texnik vositalar imkoniyatidan keng foydalanish.

Pedagogik texnologiya o'zida quyidagi xususiyatlarni namoyon etadi:



10-shakl. Pedagogik texnologiyaning o'ziga xos muhim xususiyatlari

Pedagogik texnologiyaning nazariy asoslari umumpedagogik, xususiymetodik hamda lokal (modul) bilimlarga asoslanadi. Shu bois pedagogik xodimlar, shuningdek, bo'lg'usi o'qituvchilar o'z faoliyatlarida pedagogik texnologiyadan foydalanishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ygan bo'lsalar, yuqorida qayd etilgan bilimlarni puxta o'zlashtira olishlari lozim. Zero, pedagogik texnologiya puxta o'zlashtirilgan pedagogik bilimlarga tayanilgan holda tashkil etiladigan yuksak samarador pedagogik faoliyat jarayonidir.

1.2. Pedagogik texnologiya loyihalari: ilmiy yondashuvlar va yechimlar

O'zbekistonda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida jamiyatning potensial imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, kuchli intellektual va ma'naviy salohiyatni shakllantirish jarayoni bosqichma – bosqich amalga oshirilmoqda. Fuqarolik jamiyatini barpo etish konsepsiyasi bevosita ta'lim – tarbiya tizimini rivojlantirish, yangi texnologiyalarni loyihalash va pedagogik amaliyotga tatbiq etish bilan uzviy bog'liqdir.

Keyingi yillarda biz ta'lim fazosini standartlashtirish jarayonining guvohi bo'layapmiz. Bu ish ancha murakkab va bajaruvchilar uchun kutilmagan holat bo'ldi. Ta'lim standartlarininig yuzaga kelishi mavjud vaziyatni birmuncha qiyinlashtirib yubordi, chunki standartning shartsiz bajarilishini kafolatlaydigan va pedagogik amaliyotga joriy etiladigan texnologiyalar ishlab chiqilmagan edi. Har bir o'quvchi ta'lim standarti darajasiga erishishi uchun o'quv yurtlaridagi mavjud an'anaviy metodikalar o'rniga zamonaviy pedagogik qurollar zarur bo'ladi. O'quv jarayoni loyihasini texnologiya darajasiga chiqarish va bu loyihaaning joriy etilishi o'qituvchini yuqori malakali mutaxassisga aylantirish bilan birgalikda o'rganuvchining mavqeini ham kuchaytiradi va ijodiy hamkorlikning yangi ufqlarini ochadi.

Aksiomalar tizimini 3 guruhga ajratadi. Birinchisi – pedagogik texnologiyalarni bir butun ta'limiy kenglikka qo'shish aksiomalari, ikkinchisi – o'quv jarayonini modellashtirish aksiomalari, uchinchisi – o'quv jarayonini

me'yorlash aksiomalari. O'z navbatida ularning har biri o'zida uchtdan aksiomalarni birlashtiradi.

Birinchisi (A1) – pedagogik texnologiyaning ta'lim makoniga talab qo'yish aksiomasi; A2 - pedagogik texnologiyaning “o'qituvchi” tizimiga moslik aksiomasi, A3 - pedagogik texnologiyaning predmet metodikasi tizimiga nisbatan universallik aksiomasi.

Ikkinchi guruhga (A4) pedagogik texnologiya asosini tashkil etuvchi o'quv jarayoni modelini loyihalash aksiomasi kiritiladi. Bu axborotli model quyidagi parametrli topshiriqlar yordamida tavsiflanadi:

1 – parametr (maqsadga joizlik) o'quv – tarbiyaviy jarayonning umumiy maqsad va yo'nalishini mikromaqsadlar tizimi ko'rinishida ifoda etadi.

2 – parametr (tashxis) mikromaqsadlarga erishish yoki erishmaslik dalili to'g'risida boshqaruv axborotlarni mujassamlashtiradi.

3 - parametr (miqdorli o'lchov) o'quvchilarning mustaqil faoliyati xususiyatlari, xarakteri va hajmi haqida tashxisning muvaffaqiyatli o'tishini kafolatlash uchun yetarli bo'lgan mazmunli va sonli axborotlar beradi.

4 – parametr (mantiqiy tuzilma) – bu o'qituvchining metodik fikrlarini o'quv jarayonining yaxlit va mantiqan ko'rsatmali modeliga aylantirish bosqichini e'tiborga oladi va o'qituvchi mahoratining yuksak darajasini belgilab beradi. Bu faoliyat shunchalik o'quv jarayoning mantiqiy tuzilmasi fotografiyasi emas, balki maxsus shakllangan ishchi maydon bo'lib, unda barcha elementlar texnologik qonuniyatlar asosida ifodalanadi va ma'lum muolajalar yordamida yetarlicha muqobillashtiriladi.

5 – parametr (tuzatish) pedagogik yaroqsizlik, ya'ni tashxisdan o'tmagan o'quvchilar haqida va tuzatishning metodik yo'llari to'g'risidagi axborotlarni tasvirlaydi.

Shuningdek, ikkinchi guruhga (A5) o'quv jarayoni modelining tashkil etuvchi ko'rsatkichlari tizimi yaxlitligi va takrorlanuvchanligi aksiomasi ham kiritiladi.

O'quv jarayonini texnologiyalashtirish ob'yekti har qanday premetrning o'quv mavzusi bo'lishi kerak, uning hajmi esa qat'ianligi bilan ajralib turadi: minimum 6 – 8 dars, maksimum – 22 – 24 dars. Ana shu mavzu loyihasida bo'lajak o'quv jarayoni yuqorida nomlangan beshta parametr yordamida yaxlit beriladi va aynan shu o'quv mavzusi har qaysi predmet bo'yicha o'quv jarayonini loyihalashga imkon beradigan bir xildagi muolajalar ko'rinishida texnologiyalashtirish va loyihalashning takrorlanuvchanligini ta'minlaydi.

Ikkinchi guruh tarkibiga kiradigan yana bir aksioma (A6) – bu o'quv jarayonining axborotli modelini texnologiyalashtirishdir. V. M. Monaxov tajribasida bir mavzu doirasida 5 ta parametrlarni o'zida mujassamlashtirgan o'quv jarayoni loyihasining texnologik xaritalari yaratilgan. Texnologiya o'qituvchini loyihalash muolajalari tizimi bilan qurollantirilsa, texnologik xaritalar o'quv mavzusi bo'yicha o'quv jarayoni loyihasining pasporti sifatida kerak bo'ladi.

Uchinchi guruh aksiomalarini (o'quv jarayoni loyihasini me'yorlash) pedagogik texnologiya mavjudligining asosiy mahsuloti sifatida tavsiflaydi. O'qituvchining kasbiy faoliyatini texnologiyalashtirish aksiomasi (A7) kasbiy faoliyatning quyidagi innovatsion komponentlariga tegishli:

- o'quv jarayoni loyihasining pedagogik g'oyalarini butun bir o'quv yili uchun o'qituvchi tomonidan o'z xususiy metodik tajribasiga, o'quv dasturi mazmuniga va davlat ta'lim standarti talablariga tayangan holda mikromaqsadlar ketma – ketligi ko'rinishida ifodalash kasbiy ko'nikmasi. Boshqacha qilib aytganda, bu – standart talablarini mikromaqsadlar tiliga o'tkazishning texnologik muolajasidir, mikromaqsad esa o'quvchilarning bilish va rivojlanish zinopoyasidir. Bu component bevosita an'anaviy o'quv mavzularini qaytadan tuzish bilan bog'liqdir.
- texnologik xaritani loyihalash kasbiy ko'nikmasi. Bu jarayon pedagogik mahorat cho'qqisi hisoblanadi, sababi o'qituvchi bo'lajak o'quv

jarayonini oldindan ko'ra biladi, o'z g'oyalarini texnologik xaritada qoidali tarzda tasvirlaydi. Ta'kidlash joizki, bu kasbiy ko'nikma yetarlicha murakkab, ko'p bosqichli, o'z mohiyatiga ko'ra integrativ bolib o'qituvchidan yaxshi rivojlangan refleks qobiliyatni talab etadi;

- darsning axborotli xaritasini konstruksiyalash kasbiy ko'nikmasi yoki bu xaritalar yig'indisi har bir o'quv mavzusi uchun bo'lajak o'quv jarayonining aniqlashtirilgan loyihasi hisoblanadi;
- ikki pedagogik ob'yektni taqqoslash kasbiy ko'nikmasi: texnologik xaritalar ko'rinishidagi o'quv jarayoni loyihasi va ma'lum sinfda real o'quv jarayoni natijalari bilan birgalikda darsning axborotli xaritalar tizimi. Taqqoslashni aniq ko'rsatkichlar va texnologik muolajalar bo'yicha o'tkazish kerak. Qiyoslash muolajalari asosida tashxislash natijasiga ko'ra mazkur sinfda o'quv – tarbiyaviy faoliyat rivojini qayd etuvchi maxsus monitoring yotadi.

O'quv jarayoni loyihasini me'yorlash aksiomasining (A8) mohiyati quyidagilardan iborat: o'quv jarayoni loyihasi texnologik xarita tarzda tayyor bo'lgach, bevosita zaruriy hisoblar amalga oshirilishi kerak: o'quv vaqti, didaktik axborotlar hajmi, uni o'zlashtirish tezligi, shu o'quv mavzusi chegarasida o'quvchilarni rivojlantirishning metodik dasturiga ajratiladigan vaqt va boshqa.

Nihoyat, uchinchi guruhning so'nggi aksiomasi shunday ifodalanadi: yakuniy natijani kafolatlaydigan pedagogik texnologiyaning maqbul ishlashi uchun ishchi maydonni shakllantirish aksiomasi (A9). Har qanday pedagogik texnologiya bu aksioma talablarini bir vaqtning o'zida o'quvchilarning ham o'quv, ham umumiy yuklamasi bo'yicha qanoatlantirishi shart; darsning axborotli xaritasi ichida yosh jihatidan o'z guruhi doirasida o'quvchilarni o'quv – bilish faoliyatlarining asosiy turlari me'yorini saqlash zarur. Bu bevosita psixologik – pedagogik va fizio – gigiyenik me'yorlarni saqlashga ham tegishlidir.

Muammoli – modulli o'qitish texnologiyasining yetakchi sifat belgisi – bu egiluvchanlik hisoblanadi. Zamonaviy yuqori texnologiyali ishlab chiqarishda egiluvchan avtomatlashtirilgan tizim muhim sanalgani kabi hozir ham, kelajakda ham pedagogik texnologiya samaradorligi ko'p jihatdan uning ilmiy – texnikaviy va ijtimoiy – iqtisodiy o'zgaruvchan sharoitga moslasha olish va zudlik bilan ta'sir etish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Egiluvchanlik tuzilmasi, mazmunli va texnologik holda bo'lishi mumkin.

Tuzilmali egiluvchanlik qator holatlari bilan ta'minlaydi: muammoli – modul tuzilmasining safarbarligi, muammoli – modulli dastur pog'onali, egiluvchan jadval loyihasining mavjudligi va ko'p vazifali o'quv xonalarining jihozlanganlik imkoniyatlari va boshqalar.

Mazmunli egiluvchanlik birinchi navbatda ta'lim mazmunini tabaqalashtirish va integratsiyalash imkoniyatlarida namoyon bo'ladi. Bunday imkoniyatning o'zi taklif etilayotgan texnologiyada o'quv materialining blok va modulli prinsip asosida saralanish evaziga vujudga keladi.

Texnologik egiluvchanlik muammoli – modulli ta'lim jarayonining quyidagi jihati bilan ta'minlanadi: o'qitish metodlarining variantligi, nazorat va baholash tizimining egiluvchanligi, o'quvchilarning o'quv – bilish faoliyatini yakka tartibda tashkil etish va boshqa.

Shu bilan birgalikda opponentlar tomonidan muammoli – modulli o'qitishning qator kamchiliklari ko'rsatildi, ular: ta'lim jarayonining bo'laklarga bo'linganligi, ya'ni o'quvchilarning mustaqil ishlari salmog'i birmuncha katta; o'quv predmetining yaxlitligi va mantiqini inkor etish; o'quvchilarni tayyorlash torligi: o'qitish kursining bog'liq bo'lmagan muammolar yoki masalalar qismlariga qadar qisqarishi; umumlashmaga ziyon yetkazadigan xususiy, aniq ko'nikmalarnigina shakllantirishi; muammoli modullarni tayyorlash va mashg'ulotni o'tkazishga tayyorgarlikning ko'p mehnat talab qilishi.

Sanab o'tilgan kamchiliklarning ko'pligi modulli o'qitish texnologiyasini o'rnatish bosqichida birmuncha aniq sezilsa-da, asta-sekinlik bilan dazmollanib

boradi. Shuni eslatish joizki, u yoki bu texnologiyani “toza” holda joriy etish mumkin emas. Xohlaymizmi yoki yo’qmi, o’quv jarayonini tashkil etishning an’anaviy yondashuviga va mavjud didaktik jarayonga tayanishga to’g’ri keladi.

Ta’lim mazmunini muammoli- modulli loyihalash quyidagi asosiy tayanchlardan iborat bo’ladi:

- bilish faoliyatining fundamental metodlari doirasida kursni joy-joyiga qo’yib tuzish. Misol uchun, matematika darsida bunday metodlarga matematik modellashtirish, aksiomatik, koordinat, vektorli, mantiqiy metodlar kiradi;
- tayanch muammoli modullarning mazmunini aniqlash. Saralashning muhim sharti bilish faoliyati metodlarining prinsipli mazmuni hisoblanib, umummadaniy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu o’qitishning tayanch mazmuniga oid quyidagi mezonlarni hisobga olishni taqozo etadi:
- fundamental, uzviylik, uzluksizlik va ta’limni insonparvarlashtirish;
- yechimi bilish faoliyati metodlarining mosini qo’llashni talab etadigan yirik kasbiy-amaliy muammolarni turli guruh kasblarining o’ziga xosligini hisobga olib ajratish;
- ixtisosli va darajali tabaqalashtirishni ta’minlashga yo’naltirilgan o’zgaruvchan modullarning mazmunini tanlash va hajmini aniqlash, shuningdek, muammoli- modulli dasturlarning turli – to’liq, qisqargan va chuqurlashtirilgan variantlari bo’yicha o’quvchilarning yakka tartibda o’lg’a siljishi uchun sharoitlar yaratish.

Muammoli modullarni qo’llash ko’lami quyidagi tartibotlarni qamrab oladi: tizimli, avtonom va integratsiyalashgan. Tizimli tartibot muammoli modullaridan mustaqil kurs doirasida foydalanishni taqozo etadi. Avtonom – ma’lumot moduli sifatida boshqa fanlar doirasida, integratsiyalangan – interfaol kursi doirasida qo’llanishi lozim.

Shunday qilib, muammoli-modulli o'qitish texnologiyasining mohiyatini quyidagicha izohlash mumkin: o'quvchilarning talab etilgan darajada bilimdonligiga erishish uchun o'quv materialini mazmunini yirik tuzilmalash, unga mos holda o'qitish metodlari, vositalari va shakllarini tanlash amalga oshirilib, ular o'quvchilarni to'liq, qisqargan yoki chuqurlashgan o'qitish variantlarini mustaqil tanlash va o'tishga yo'naltiriladi.

Istiqlol bizga chinakam ilm fanning rivojlanishi uchun katta imkoniyat yaratdi. Buning uchun biz doimo tinimsiz kashfiyotlar yaratishimiz, yangi-yangi tashabbuskorlik, ijodkorlik namunasini kiritishimiz lozim. Avvalo yoshlarga bilim berishda pedagogik texnologiyalarni yaratishning ilmiy asoslarini takomillashtirish muhimdir. Buning natijasi bo'lib o'quvchi shaxsni shakllantirish, yangi yetuk kadrlar uchun zamin yaratiladi. Maktab va oliy o'quv yurtlar oldidagi kechiktirib bo'lmaydigan vazifalar borki, busiz yutuqlar haqida gap bo'lishi mumkin emas. Jumladan:

- Ta'lim standartlari va o'quv dasturini doimo takomillashtirib borish muhimdir;
- O'quv qo'llanmalar va darsliklarini bugungi kun talabidan kelib yozish;
- Darslik va o'quv qo'llanmalar dunyo andozasiga to'g'ri kelishligi;
- Berilayotgan mavzularda mahalliy materiallardan keng foydalanishlik;
- Dars o'tishdagi uslub va tavsiyalar ta'lim jarayonini har jihatdan boyitish;
- Natijasi ma'naviy yetuk kadrlar yetkazish, mustaqil yurtimizni har jabhada yutuqlarga olib keladi.

Ta'limni yanada takomillashtirish va uning dunyo andozasiga mos keladigan mexanizmini yaratish va uni amaliyotda qo'llash kundalik vazifa bo'lib qolaveradi. Maxsus o'quv dasturlar asosida bolalarning qobiliyatlariga e'tibor berish keng iste'dodlarni kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Prezidentimiz I.A.Karimov shunday deb yozgan: “ Milliy istiqlol yosh avlodimiz qanday tarbiya topishiga, qanday ma'naviy fazilatlar egasi bo'lib voyaga yetishiga, farzandlarimiz hayotida nechog'li faol munosabatda

bo'lishiga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishiga bog'liq ekanligini hamisha yodda tutishimiz kerak".

Prezidentimizning xalq ta'limi xodimlariga aytgan ushbu so'zi bizga juda katta mas'uliyat yuklaydi va o'z ustimizda ishlashni to'xtovsiz yangilab, takomillashtirib borishga undaydi.

1.3. Boshlang'ich sinf matematika darslarida interfaol metodlari va ularning tavsifi

Zamonaviy ta'limni tashkil etishda qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda bu borada katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Ta'limni isloh qilinishi jarayonining ajralmas, muhim qismi hisoblangan zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar ta'lim jarayoniga o'zlari bilmagan holda qiziqishi bilan kirishib ketadilar. Tajriba shuni ko'rsatadiki, zamonaviy interfaol strategiyalar bo'lgan bilimlarni samarali o'zlashtiradi. Chunki bugun sinflarni to'ldirib o'tirgan o'quvchilar sho'x, beg'ubor bolalik gashtini surayotgan, ba'zan xayolparast bolalardir. Ular orasida hatto 45 daqiqalik dars jarayonining nihoyasini intiqlik bilan kutib, ta'limga yuzaki qaraydigan o'quvchilar ham yo'q emas.

Interfaol metod - ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidadagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol

ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs – munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim – tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iboratdir.

Barcha fan o'qituvchilari shu jumladan boshlang'ich sinf o'qituvchilari ham dars mashg'ulotlari jarayonida interfaol metodlardan borgan sari keng ko'lamda foydalanmoqdalar.

Interfaol metodlarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslangan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Interfaol degani, o'qituvchi va o'quvchilar orasida o'zaro hamkorlik tufayli dars samaradorligini oshadi, yangi darsni o'quvchi mustaqil harakat, mulohaza, bahs-munozara orqali o'rganadi, qo'yilgan maqsadga mustaqil o'zi darsda o'quvchi faol ishtirok etgan holda kichik guruhlarda javob topishga harakat qiladi, ya'ni ham fikrlaydi, ham baholaydi, ham yozadi, ham gapiradi, ham tinglaydi, eng keragi o'zi faol ishtirok etadi. Interfaol usullarining negizidagi topshiriq mazmunini anglab yetgan o'quvchilar ta'lim jarayoniga o'zlari bilmagan holda qiziqish bilan kirishib ketadilar.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan matematik ta'limning interfaol strategiyalari ta'lim jarayonining yengillashuvini, aniqlashuvini, keng jamoani qamrab olishga m o'ljallanganligini, o'qituvchining faqatgina yo'l - yo'riq ko'rsatuvchi nazoratchiga aylanishinini, o'qitishning erkin va majburiyatsizligini hamda eng asosiysi o'quvchilar uchun o'ta qiziqarligini va samaradorligini ta'minlab bera oladi. Vazifamiz taqdim etilayotgan matematik

ma'lumotlar tizimini o'quvchilar ongiga singdirishda imkon qadar oson, qiziqarli, serqirra va shu bilan birga samarali yo'llarini ishlab chiqarishdan iborat.

Interfaol strategiyalarning qo'llanilishi majburiy matematika darsi jarayonini beixtiyor psixologik o'yin yoki musobaqaga aylantirib, yuqorida tilga olingan passiv o'quvchilarni ham bir oz bo'lsa-da, lekin yuritishga o'z fikrlarini keng ommaga izhor etishga, umuman sinfda kechayotgan bahs – munozaralarga befarq bo'lmasdan, faol ishtirok etishga undaydi.

An'anaviy usulda tuzilgan darsga o'quvchilarning faqat bilim olishiga talab qo'yilgan bo'lsa, matematika ta'limining yangi modelida bilim bilan birga ta'lim samarasini oshirishda tanqidiy, mustaqil fikrlashga o'rgatish ham yuqori o'ringa qo'yiladi. Bunda dars mobaynida o'qituvchi va o'quvchi munosabatidagi an'anaviy, majburiy itoatkorlik o'rnini ongli intizom egallashiga katta e'tibor qaratiladi, buning uchun esa o'quvchiga tanqidiy, mustaqil fikrlash malakasini singdirib borish zarur. Bu borada quyidagilarni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi:

- 1) matematikada o'qitish jarayoni zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida tashkil qilinishini talab etadigan ma'lum tizimga ega bo'lgan yondashuvlar tamoyillari;
- 2) uzluksiz matematika ta'limini tizimiga pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llash zarurati haqidagi ilg'or pedagogik g'oyalari;
- 3) o'qitish jarayonini faollashtirish hamda uzluksiz ta'limda pedagogik texnologiyalar nazariyasi;
- 4) tanqidiy tafakkurni rivojlantirish nazariyasi;
- 5) shaxsning ijobiy rivojlanish nazariyasi;

Umuman olganda, matematika o'qitishda eng yuqori rivojlantiruvchi samaraga erishish mumkin, agar:

- uzluksiz matematik ta'lim tizimida o'qitishning interfaol metodlari o'qitilayotganlarning mustaqil, tanqidiy tafakkurini rivojlantirish vositasi sifatida qo'llanilsa;

- uzluksiz matematik ta'lim tizimida pedagogik texnologiyalarni qo'llash jarayonini o'qitilayotganlar haqiqiy o'quv imkoniyatlarini iloji boricha aniq hisobga olgan holda, ularda matematik bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan mustahkam qiziqishlarni shakllantirish imkoniyatlari ta'minlasa;
- uzluksiz ta'lim tizimida matematika o'qitish jarayoni murakkab aqliy faoliyat sifatida qaralib, u faqatgina ahdozali darsdagi da'vat, anglash va fikrlash bosqichlari to'g'ri amalga oshirilgandagina to'laqon bo'ladi, deb qaralsa;
- uzluksiz ta'lim tizimida amaliy mazmunga ega bo'lgan matematik tushunchalarni o'qitishdan 3 ta asosiy (ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi) maqsadlarni amalga oshirish vositasi sifatida foydalanilsa.

Buning uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

- 1) o'quvchilarni matematika o'qitishda pedagogik texnologiyalarning ta'limiy – rivojlantiruvchi rolini aniqlash;
- 2) o'quvchilarni matematika o'qitishda interfaol metodlarni tanlash mezonini va ularni qo'llash tamoyillarini aniqlash;
- 3) uzluksiz matematik ta'lim tizimida ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llashda mavjud darslik va o'quv qo'llanmalardan foydalanish usullarini aniqlash;
- 4) matematika o'qitish jarayonida interfaol metodlarni qo'llash bo'yicha maktablarga mo'ljallangan o'quv – metodik , didaktik tarqatma materiallarni ishlab chiqish.

Bugungi milliy tarbiyashunoslikka “ Interfaol usullari” nomi bilan kirib kelayotgan usullar o'quvchi o'qituvchidan ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish maqsadini nazarda tutadi. Qisqa vaqt mobaynida ma'lum nazariy bilimlarni o'quvchiga yetkazish, unda ayrim faoliyat yuzasidan ko'nikma, malaka hasl qilish, ma'naviy sifatlarni shakllantirish shu bilan birga ularni nazorat qilish, hamda baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat va chaqqonlik talab qiladi.

Interfaol dars jarayoni shunday tashkil etilishi kerakki, bunda sinfdagi barcha o'quvchilar faollashishi zarur, ya'ni dars o'tish jarayonida o'quv materiallarining ma'lum bir qismi o'quvchilar tomonidan mustaqil o'rganiladi(yakka, juft – juft yoki guruh bo'lib), so'ngra bu material sinfdagi har tomonlama muhokama etiladi. Amaliy ishlar ham shu tariqa bajariladi. O'quv jarayonida o'quvchilar o'qiyotganliklarini, muallim ularga o'qish va o'rganishlari uchun yordam berayotganini anglasinlar. O'qituvchi – o'quv jarayonini tashkilotchisi, rahbari, nazoratchisi hamdir. O'quvchining sinfdagi o'zini erkin his qilishi va o'quv faoliyati uni emotsional jihatdan qoniqtirishi lozim, ana shundagina u o'zining fikrlarini erkin bayon qila oladi. Bundan tashqari o'qituvchi o'quvchining bilimini sinashi, ko'nikma va malakalarini aniqlashi, uning shaxsiy fikrini bilishi uchun albatta to'g'ri savol qo'ya olishi kerak.

O'quvchilarni faollashtirish uchun dars jarayonida qo'llaniladigan usullarni to'g'ri tanlash va savollarni aniq tuzish katta samara beradi. Buning uchun darsga, mavzuga qo'yiladigan maqsad aniq belgilanib, shu maqsadga erishish yo'li, usuli puxta ko'rib chiqilishi lozim. Demak, o'qituvchi har bir foydalanadigan interfaol usulni o'quvchiga nima berishini oldindan ko'ra olishi va darsni to'g'ri tashkil qilishi kerak. Bunda quyidagi qoidalarga rioya qilishi darkor:

1 – qoida: Sinfdagi hamma o'quvchilarning texnologik jarayonga faol qatnashishlariga erishish kerak. Buning uchun hamma o'quvchi ishtirok etadigan mavzuni va unga mos metodni tanlash kerak bo'ladi. O'yinlar ham shu asosda tanlanadi, agar rolli o'yinlar o'ynalsa, har bir o'quvchi hamma rolga bo'lib chiqishi uchun o'yin bir necha marta takrorlanadi.

2 – qoida: Interfaol o'yin texnologiyalardan foydalanish uchun o'quvchilarni psixologik tomondan tayyorlash masalasiga e'tibor berish kerak. Chunki hamma o'quvchi ham darsda faol ishtirok etishga, biror rolga kirish va fikrini erkin bildirishga tayyor bo'lavermaydi. Uyalash, qisilib – qimtinish, odatda tashqaridan cho'chish kabi holatlar yuz berishi mumkin. Buning oldini olish uchun avval kichik hajmdagi, qisqa vaqtli mashqlardan foydalanish, faolligini rag'batlantirish va ixtiyoriylikdan ko'ra navbat bilan ishtirok etishni joriy qilish kerak bo'ladi.

3 – qoida: Aslida interfaol metodlar kichik guruhlar bilan ishlashda ko'proq samara beradi. Shuning uchun ularni 30 kishidan ortiq bo'lmagan o'quvchili sinflarda o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki o'qitishning sifati o'quvchilar soniga teskari proporsional bog'liq bo'lishi mumkin. Har bir o'quvchi fikrini eshitish, har birini faoliyatga jalb qilish, har bir o'quvchining harakatlarini kuzatib borishi uchun sinfda o'quvchilar juda ko'p bo'lmagan ma'qul. Xonada o'quvchi tomonidan kichik guruhlariga bo'lingandan aylanib yurushi uchun, erkin harakatlanish uchun yetarli kenglik ham bo'lishi kerak.

4 – qoida: Sinf xonasini ham alohida tayyorlash kerak. Kichik guruhlar uchun stol va partalarni birlashtirish, ularni nomerlash va nomlash, atrofda joy almashtirish, ijodiy ishlash uchun yetarli yo'lkalarni qoldirish kerak. Agar doska va "sahna" da ishlash kerak bo'lsa, stullar doskaga qaratib yoki yarim qaratib qo'yiladi, o'quvchilarning doskaga orqa o'girib o'tirishi noto'g'ri hisoblanadi. O'yin uchun va metod uchun kerakli hamma jihozlar oldindan o'qituvchi tomonidan kerak bo'lsa, o'quvchilar ishtirokida tayyorlanadi.

5 – qoida: Metodning mohiyati va o'yinning qoidalari avval yaxshilab tushuntirishi va hamma shartlar oldindan aytib kelishib olinishi kerak. Masalan guruhda ishlansa, guruhning vazifalari, natijalarni e'lon qilish shakli, har bir ish turi va ajratiladigan vaqt, baho mezonlari e'lon qilinadi. Demak, har bir o'quvchi o'zining vazifasini aniq bilgan va uni bajarishga psixologik jihatdan tayyor bo'lishi kerak. Yana bir masalaga alohidan e'tibor berish kerakki, har qanday fikr – mulohaza, taklifni sabr bilan eshitishi, bir – birini hurmat qilish va bahamjihat bilan ishlashga ham kelishiladi va o'rganib boriladi.

6 – qoida: o'quvchilarga vazifalarni va rollarni taqsimlash, o'quvchilarni guruhlariga ajratishi masalaga e'tibor bilan qarash kerak. Agar faqat o'quvchilar ixtiyoriga qo'yib berilsa, guruhlar tarkibi doimiy bir xil bo'lib qoladi, o'yindan esa faqat dadilroq, faol va qiziquvchan o'quvchilar ishtirok etadi va uyatchan, passiv o'quvchilar chetda qoladi. Guruhda ham ayrim o'quvchilar doimiy lider bo'lib, ba'zi o'quvchilarning deyarli ishtiroki sezilmay qoladi. Shuning uchun ham tanlov tasodifiy bo'lishi va harakat qilishi kerak. Masalan: guruhlariga orqasi o'girilgan

jetonlarni olib, ularga chizilgan rasm, nomeri, rangi bo'yicha ajratiladi, roller konvert ichiga yozilib tanlab olinishi mumkin bo'ladi. Misol uchun quyidagilar:

“Adashgan zanjirlar” usuli boshlang'ich sinflarda biror bir ketma – ketlikni tiklash uchun qo'llanadi. Bunda o'qituvchi biror mavzu, tushuncha, algoritmgga oid ketma – ketlikni alohida – alohida va tartibsiz qo'yadi. O'quvchilar tartibsiz joylashgan so'zlarga mantiqiy bog'langan zanjirni tuzishlari kerak. Bu metodni 4-6 kishilik guruhda qo'llash ham, butun sinf bilan ishlash ham mumkin. Masalan 4-sinf darsligidan “Noma'lum qo'shiluvchini toppish” qoidasi: “Noma'lum qo'shiluvchini topish uchun yig'indidan ma'lum qo'shiluvchini ayirish kerak”, shunday o'zgartiriladi: qo'shiluvchini ayirish topish noma'lum uchun yig'indidan ma'lum kerak qo'shiluvchi” So'zlar alohida qog'ozlarga yoziladi va ko'rgazma taxtasiga betartib joylashtiriladi. O'quvchilar tartibni tiklaydilar, yoki har bir guruhga so'zlar to'plami beriladi va guruhlar tartibini tiklaydilar.

“Bahs – munozara” da o'quvchilar bilan biror muammoni yechish yo'lini qidirishda foydalaniladi, masalan: masala yechish, o'lchash ishlarini bajarish, yechimning qulay usulini topish va hokazo. Sinfni to'rtliklarga bo'lish va guruhda ishlash mumkin.

“Muammoli savollar” sinfda muammoli vaziyatni yaratish, bir muammoni mustaqil o'quvchilar tomonidan yechilishiga erishish uchun qo'llanadi. Muammoli savol va topshiriq o'qituvchi tomonidan aniq aytiladi, doskaga yoziladi, yechimni juft – juft bo'lib qidirish taklif qilinadi. Har bir guruh javobi eshitiladi va umumlashtirib yagona yechimga kelinadi.

Dars vaqtining taqsimlanishi, ishni tashkil qilish qoidalari oldindan o'quvchilar bilan kelishilgan holda rejalashtirib olinadi va sinf doskasiga yozib qo'yiladi:

O'zaro hurmat.

O'ng qo'l qoidasi.

Navbatma – navbat so'zga chiqish.

Dars jarayonida mustaqil, ijodiy fikrlash.

Faollik

O'zgalar fikrini tanqid qilmaslik.

Yangi g'oyalarni o'zlashtirish.

Barcha sinf o'quvchilarini dars jarayonida faol ishlashlariga erishish.

Mavzu bo'yicha kichik guruhlar taqdimotini asoslab, dalillab so'zlashga erishish.

Qiziqarli g'oyalarni taklif qilish.

Ijodiy yondashish.

Samarali ishlash.

“Kichik guruhlariga bo'lish metodi” – bu o'qituvchi tajribasi, mahorati, ijodiy yondashuviga ko'ra turli xil metodlar asosida qo'llanishi mumkin. Guruhlarga bo'lishda sinf o'quvchilarini ranjitmaslik, kamsitmaslik, ularni estetik did nuqtai nazaridan, kelishmovchiliksiz, guruhlariga bo'lishga harakat qilinadi. Bu maqsadda turli xil o'yinlar asosida yoki masalan: rangli qog'ozdan har xil shaklda, kichkina hajmda, sinf o'quvchilarning jami sonini hisobga olgan holda, oldindan tayyorlangan kesma shakl (doira, uchburchak, to'rtburchak, beshburchak va hokazo) lardan foydalaniladi. Tayyorlab qo'yilgan rangli shakllar o'quvchilarga tarqatiladi (bu holda har xil o'quvchi ixtiyoriy ravishda o'zi xohlagan rangdagi shaklni tanlab oladi). O'quvchilar tanlab olgan shakllar yoki ranglar asosida o'qituvchi o'quvchilarni osongina guruhlariga ajratib oladi.

Masalan: Oq rang	1-guruh
Yashil rang	2 –guruh
Ko'k rang	3 –guruh
Jigar rang	4- guruh
Sariq rang	5-guruh
Qizil rang	6- guruh

Sinf xonasidan eng qulay kichik guruh – bu bir partada o'tirgan o'quvchilar jufti yoki, ketma-ket 2 ta partadagi o'quvchilar to'rtligidir. Ba'zi muammolarni hal qilish ayniqsa, shu kichik guruhlar kuchidan foydalanish sinfni alohida tayyorlash va partalarni surib, joylarni o'zgartirish majburiyatidan o'qituvchini ozod qiladi. Agar shunday tartibda ishlash o'rganilsa, sinfni guruhlariga bo'lish, guruhlarini tuzishga ortiqcha vaqt sarflanmaydi.

Guruhda ishlash uchun taklif qilish mumkin bo'lgan eng samarali usullaridan biri mavzu yuzasidan savol va javob berishga undash, undan ham samaraliroq usul esa, o'tilgan mavzuga oid mustaqil savol tuzishga undashdir. Agar guruhlarga mavzu yuzasidan savol tuzish, misol va masala tuzib sinfga taklif qilish vazifasi berilsa, o'quvchining darsga e'tibori oshadi, fikri uyg'onadi, agar savol tuzish berish va unga to'g'ri javobni o'zlari bilishi ham kerak bo'lsa, (albatta hamma vaqt emas, ba'zi muammoli savollarning javobini o'quvchi bilmasligi mumkin) bolalar darsda e'tiborliroq bo'ladi, berilayotgan savollar sifatini tahlil qilishga o'rganadi.

“Klaster” metodi ham o'quvchilarga ixtiyoriy mavzular xususida erkin, ochiq o'ylash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Bunda o'quvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida foydalanish mumkin. “Klaster” metodi o'quvchilarning tushunchalar orasidagi bog'liqlikni aniqlashga, mavzuga oid hamma tushunchalarni eslashga o'rgatadi. “Klaster” so'zi bog'lam, dasta ma'nosini bildiradi. Bu metod orqali biror mavzuga oid o'quvchilar biladigan tushunchalarni aniqlashda biror – bir mavzu o'rganilgandan keyin o'quvchilar o'rganib olgan tushunchalarni aniqlash mumkin. Metodni amalga oshirish uchun doska o'rtasiga asosiy so'z yoki gap yozib qo'yiladi. O'quvchilarga shu so'z bilan bog'liq hamma so'z va so'z birikmalarini eslab doskaga yozish taklif qilinadi. Bog'lamlar ko'p bo'lishiga harakat qilinadi, hamma so'zlar (oxirgi so'z qolmaguncha) yoziladi, xatolarga e'tibor berilmaydi, hamma o'quvchiga imkoniyat beriladi. Ishni misollardan boshlash maqsadga muvofiq. Masalan 3-sinfda bo'lishga oid asosiy misol turlarini yig'ishni taklif qilaylik. O'quvchilar barcha misollarni taklif qilgandan so'ng, o'qituvchi o'z variantini namoyish qiladi va bu ishlar taqqoslanadi. O'qituvchi variant:

“Klaster” metodi “Vaqt birliklari”, “Tenglama”, “Masala turlari” va boshqalarga oid bo'lishi mumkin.

Birinchi bob bo'yicha xulosa

Yuqorida qayd etilgan ishlar natijasida matematik bilimlarni berish jarayonini takomillashtiruvchi yo'nalishlarni amalga oshirish metod va vositalarni uzluksiz matematik ta'lim tizimi (maktab va maktabgacha muassasalar) amaliyotiga joriy qilinishi ta'minlanadi; ilgor pedagogik texnologiyalarni qo'llash uchun ishlab chiqiladigan o'quv – metodik, didaktik tarqatma materiallar ,metodik qo'llanmalar uzluksiz matematik ta'lim tizimi amaliyotiga joriy qilinadi. Pedagogik texnologiya – o'qitish usuli, ma'lum ma'noda ta'lim – tarbiya jarayonlari, vositalari, shakl va metodlari majmui sifatida o'quv materiallarini tanlash, qayta ishlab, o'quvchilarning kuchiga, o'zlashtirish xususiyatlariga moslab metod va vositalarni ishlab chiqish hamda takomillashtirish tizimidir. Interfaol metodidan foydalanishning maqsadi: o'quvchilarda hozirjavoblik hissini rivojlantirish, bahs – munozara, erkin fikrlashga asoslangan tafakkur tarzini shakllantirishdan iboratdir.

Hozirgi zamon ruhshunoslarining ta'kidlashicha, inson umri davomida egallashi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning 60 va 65% asosan kichik maktab yoshiga to'g'ri kelar ekan. Boshlang'ich sinflarda umumiy ta'lim poydevori qo'yilar ekan, bu yoshdagi bolalarga o'rgatiladigan fan asoslari puxta, asosli, zamonaviy vositalarga tayangan holda berilishi kerak. Bu bilimlarni berishda albatta o'qituvchi pedagogik texnologiyaga, mustaqil ishlarga va qiziqarli didaktik o'yinlarga murojat qiladi. Har bir darsning o'ziga xos turi bo'lganidek, har bir darsda o'qituvchi belgilangan materialni o'quvchi ongiga singdirishda uning boshqa fan bilan aloqadorligini, bog'liqligini bilishi, ko'rsata olishi zarur. Bu esa bilimlarni puxta, ongli, chuqur o'zlashtirish omilidir. O'qituvchi pedagogik texnologiyadan foydalanganda ham, o'quvchilarga ijodiy - mustaqil ish berganda ham, darsda didaktik o'yinlarni qo'llay olganda ham diqqat e'tiborini faqatgina o'quvchilarning matematik bilimlarini rivojlantirishga va shakllantirishga qaratmog'i lozim. Shuning, yuqoridagi usullar faqatgina ta'limiy ahamiyatigina emas, balki tarbiyaviy ta'siri ham katta ekanligini har bir pedagog

anglamog'i lozim. Bu usullar o'quvchilarni kelajakda umumiy bilish faoliyatlarini hamda nutq madaniyatlarining kamol topishiga yo'naltiruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Darsda mustaqil ish turlarini, didaktik o'yinlarni mavzuga oidini tanlay olish ham dars samaradorligini oshiradi. Interfaol metodlardan foydalanishdan oldin o'quvchilarga uning nima ekanligini, maqsad va vazifasini o'qituvchi tushuntirishi kerak. Ana shunda o'qituvchi dars jarayonida qiynalmaydi. O'quvchilarni mustaqil ishlashlarini birinchi sinfdan boshlab rivojlantirib borish kerak. Sodda turdagi mustaqil ishlardan asta – sekin murakkab turdagi mustaqil ishlarni bajarishni o'rgangan o'quvchi yuqori sinflarda hech ham qiynalmaydi. O'qituvchilar uchun interfaol metodlarning darsda qo'llanilishi yuzasidan muammolar ham yo'q emas. Bu boradagi qo'llanmalarning ko'payishi bu muammolarga yechim bo'la oladi.

2-BOB. Matematikani o'qitishda pedagogik texnologiyalarning tatbiq etish metodikasi

2.1. Matematika fanini o'qitishda ta'lim texnologiyani tatbiq etishning o'ziga xos jihatlari

Pedagogik texnologiya mohiyatini to'g'ri tushunish, har tomonlama tahlil qilgan holda ilmiy tarzda o'zlashtirish, tatbiq etish yo'llarini qidirish o'z ustida tinimsiz ishlashni talab etadi. Ta'lim axborot muhitining kun sayin kengayotganligi, o'quvchining o'zlashtirish darajalarining pastligi (ularni o'zgaruvchan sharoit, vaziyatlardan to'g'ri yo'l topish chiqa olishlari) kabi holatlar ta'lim – tarbiya jarayoniga davr talabi nuqtai nazaridan yangicha qarashni, o'qitishning samarali yo'llarini izlashni talab etadi. Bu texnologiyani o'rganish, amalda qo'llash ta'lim – tarbiya sifatini oshirish talabidan kelib chiqqan.

Pedagogik texnologiyaning mohiyati – ta'lim jarayonini jadallashtirish, o'quvchilarning o'zlashtirish va uning natijalarini sur'atini tezlashtirish, natijalarini obyektiv, holisona baholay olish, ko'zlangan natijalarga erishishni kafolatlashga qaratilgan pedagogik jarayonni anglatadi. Boshqacha aytganda, o'qitish jarayonining barcha bosqichlarini aniq maqsad asosida kutilgan natijalarni beradigan tarzda tizimli loyihalash tushuniladi.

Ta'lim – tarbiya jarayonini loyihalash, loyihalangan pedagogik texnologiyani boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitish jarayoniga tadbiq etish o'qituvchidan texnologik loyihalash qobiliyatini talab etadi. O'qituvchining texnologik loyihalash qobiliyatiga quyidagi talablar qo'yiladi;

- texnologiyalashtirish jarayonlarining o'zaro bog'liqliklari haqida tushunchaga ega bo'lish;
- individuallashtirish;
- ta'limni taraqqiy ettirishda texnologiyalarning o'rnini tushunish;
- o'qitishni shaxsga yo'naltirishning asosiy maqsad, tur, shakli va darajalari haqida tasavvurga ega bo'lish;

- individual yondashuv, o'qitishni tabaqalashtirish, individual o'qitish tushunchalari o'rtasidagi bog'lanish va farqlanishlarini bilish;
- o'quv jarayonini tashkil qilish vositalari orqali o'quvchining individual xususiyatlarini rivojlantirish yo'llarini bilish;
- o'quv materialni o'lchanadigan, kuzatiladigan darajada qismlarga ajratish;
- o'quv jarayonining mantiqiy tuzilishini qulaylashtirish;
- xatolarni va qiyinchilik tug'dirishi mumkin bo'lgan holatlarni aniqlay olish;
- texnologiyalashtirishning umumiy mezonlarini bilish.

Ushbu talablarga javob berish uchun quyidagi dastur asosida o'z ustida ishlash tavsiya etiladi:

1. Ta'limga texnologik yondashuvlar va shart – sharoitlar.

Ta'lim jarayoniga har xil qarashlar, o'qitish va texnologiyalashtirishga texnokratik yondashuvlar haqida tasavvurga ega bo'lish talab etiladi.

2. Ta'lim jarayonini texnologiyalashtirishning psixologik – pedagogik asoslari.

Ta'lim texnologiyalarida maqsad qo'yish, tashxislash, ta'lim texnologiyalarida ta'lim mazmunini texnologiyalashtirishni bilish talab etiladi.

3. Mualliflik ta'lim texnologiyalari.

Bunda individual o'qitish texnologiyasi, jamoa orqali o'qitish texnologiyasi, pedagogik mahoratlar texnologiyasini bilishi lozim.

4. Ta'lim jarayonini loyihalash texnologiyasi.

Zamonaviy o'qituvchining pedagogik faoliyati tuzilishi, o'quvchilarning mustaqil faoliyati, o'qitish ko'nikma va malakalari – ta'lim texnologiyalarini tatbiq etishning zarur sharti, o'quvchi bilish faoliyatini rag'batlantirib borish, didaktik tamoyillari haqida bilimga ega bo'lish zarur.

5. Ta'lim texnologiyalari – o'quv jarayonini qulaylashtirish vositasi.

Ta'lim texnologiyalarining o'quvchilar individual xususiyatlariga moslashishi, tanlash holatlari haqida yaxshi tushunchaga ega bo'lishi talab etiladi.

Bu talablarning amalga oshishi quyidagi shart – sharoitlarni taqozo etadi:

- maktablarda doimiy ravishda pedagogik texnologiyalarni o'rganish;
- umumlashtirish;
- amaliyotga tatbiq etish bo'yicha ilmiy – amaliy seminarlar tashkil etish;
- o'qituvchi o'z ustida doim ishlashi va yangi kitoblar bilan tanishib borishi.

Matematika o'qitish jarayonida yangi ta'lim texnologiyalaridan foydalanish shaxs kamolotini ta'minlashga xizmat qiluvchi mustaqil fikr yuritish, o'z ustida ishlash, faoliyatga nisbatan ijodiy yondashish kabi xislatlarning ham shakllanishiga zamin yaratadi. Shu yerda bu boradagi ichki imkoniyatlarni ochib berish haqida so'z yuritamiz.

Boshlang'ich ta'lim o'zga ta'lim bosqichlaridan integrativ, o'yinga asoslangan ta'lim texnologiyalariga beriluvchanligi bilan ajralib turadi. Lekin bolaning bog'cha davridan maktab davriga o'tishi ancha murakkab ruhiy – hissiy ichki jarayonlar asosida amalga oshadi. Bu davrda aksariyat bolalarda chuqur psixologik qiyin holati kuzatiladi. Buni bola ichki dunyosini yaxshi his eta oladigan, tom ma'nodagi jonkuyar pedagog nuqtai nazari bilan yondoshuv, suyanchiq deyish mumkin. Ko'pincha o'quvchi o'qituvchi faoliyatini aynan takrorlaydi, ya'ni ta'lim mazmunini ongli emas, ongsiz ravishda qabul qiladi. Mazkur holatning oldini olish uchun, 1 – sinf o'quvchisini ongli o'quv faoliyatiga jalb etish uchun nima qilish kerak?

Bilim qanday o'zlashtiriladi?

a) Doimiy usulda dars (eski metod).

1. O'qiganda 10 % bilim o'zlashtiriladi.
2. Eshitilganda esa 20 % o'zlashtiriladi.
3. Ko'rganda 30 % o'zlashtiriladi.

4. Eshitib, ko'rganda esa 50 % bilimni o'quvchi o'zlashtiriladi.

Bu har doim usuldagi oddiy darsda o'quvchining o'zlashtirishini ko'rsatsa, hozirgi davrdagi ta'lim texnologiyasida esa.

b) Andozali dars (pedagogik texnologiya usulida).

5. O'quvchi boshqa bolalar bilan dars o'zida o'tilgan mavzuni muhokama qilganda 70 % bilimni o'zlashtiradi.

6. Yana shaxsiy bahs, munozara o'tkazilganda esa 80 % o'zlashtirildi.

Olgan bilimni boshqalarga o'rgatganda esa 95 % bilim o'zlashtirildi.

Bilim qanday o'zlashtiriladi?

(eski usulda)

O'qiganda	10 % o'zlashtiriladi.
Eshitganda	20 % o'zlashtiriladi.
Ko'rganda	30 % o'zlashtiriladi.
Eshitib, ko'rganda	50 % o'zlashtiriladi.

(pedagogik texnologiyadan foydalanganda)

Boshqalar bilan muhokama qilganda	70 % o'zlashtiriladi
Shaxsiy bahs, Munozara o'tkazilganda	80 % o'zlashtiriladi
O'zgalarga o'rgatganda	95 % o'zlashtiriladi.

Andozali dars (A.A.F.)

A – aqliy hujum

A – Anglash

F – Fikrlash

1-4-sinflarda joriy etiladigan yangi texnologiya avvalo, fanlar orasidagi bog'liqlikni ta'minlash (integrativ), ortiqcha qiyinchilikni bartaraf etish, o'quvchi faoliyatini to'g'ri izga solish, vaqtdan unumli foydalanish, tashabbuskorlik va ijodkorlik muhitini yaratish kabi qator maqsadlarni amalga oshirish imkonini beradi.

Dunyoda rivojlangan davlatlar erishayotgan yutuqlarga shu davlat ta'lim tizimi to'g'ri yo'lga qo'yilganligi, ta'lim tizimida ilg'or pedagogik texnologiyalar izchil o'zlashtirilganligi sababdir.

Mamlakatimiz o'z mustaqilligiga erishgach, ta'lim davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. "Ta'lim to'g'risidagi" qonuni asosida "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning qabul qilinishi ta'lim tizimini tubdan isloh etishni taqozo etuvchi muhim hujjat hisoblanadi. Dasturning negizida nazariy-metodologik konsepsiya yotadi. Shuning uchun uni o'rganish va amalga tatbiq etish shunchaki kechadigan jarayon emas. "Milliy dastur" o'ziga xos yondashuvni, yangicha metodikani va yangicha kasb mahoratini talab etadi.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" – bu zamonaviy pedagogik texnologiyaning o'zi. Ijodkor mutaxassis, ijodkor tarbiyachi va o'qituvchi o'zining soha yo'nalishi bo'yicha zamonaviy pedagogik texnologiyani ajrata olmog'i, hamda uni amalda tatbiq eta bilmog'i lozim.

Bugungi kun o'qituvchilarning faoliyatiga nazar salsak, aksariyat qismida hamon ikkilanish, ba'zan cho'chish, oxirigacha tushunib yetmaslik va tahlil yetishmayotganligini ko'rishimiz mumkin. Buning sababi bitta – izlanuvchanlik va ijodkorlikning yeyishmasligi!

Pedagogik texnologiya haqida gap yuritilganda "zamonaviy", "yangilangan" so'zlarini qo'shib fikrimizni ifodalamoqdamiz. Chunki bir vaqtlar "yangi" hisoblangan pedagogik texnologiya bugungi kunda eskirgan bo'lishi mumkin. Yangilanayotgan ta'lim-tarbiya mazmuni o'z-o'zidan yangilangan usullarni, metodlarni, umuman olganda o'qitishning ilg'or pedagogik texnologiyalarni talab etmoqda. Bugungi kun o'quvchisining erkin, mustaqil, vatanparvar, bilimli qilib kamol toptirish bevosita biz pedagoglarga bog'liqdir.

To'g'ri yo'lga qo'yilgan ta'lim – tarbiya mazmuni o'qishga ongli munosabatni, insoniy kamolatni, shaxsning axloqiy, ma'naviy va jismoniy rivojlanishini hosil qilishning beqiyos omilidir.

Boshlang'ich sinflarning dars jarayonida yangicha usullarni qo'llash, ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshiradi. Darsga to'g'ri metod tanlash bilan mavzuga ijodiy yondashish albatta o'z samarasini beradi. Bizning maqsadimiz o'z fikriga ega bo'lgan, bilimli o'quvchi shaxsni kamol toptirish ekan, endilikda darslarimizda zamonaviy metod va usullardan foydalanishimiz darkor. Ular yordamida o'quvchilar o'z fikrlarini erkin, mustaqil ifodalash, o'ziga bo'lgan ishonchni orttirish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

Ilg'or pedagogik texnologiyalardan biri "Aqliy hujum" metodi hisoblanadi. Dars jarayonida bu metoddan maqsadli foydalanish ijodiy, nostandart tafakkurlashni rivojlantirish garovi hisoblanadi. "Aqliy hujum"ni uyushtirish bir muncha sodda bo'lib, undan ta'lim mazmunini o'zgartirish jarayonida foydalanish mumkin. Dastlab o'quvchilar guruhlariga bo'linadi va ular oldiga biror muammo yoki savol qo'yiladi. Uning javobi to'g'risida guruh ishtirokchilari o'z fikrlarini bildiradilar. Aytilgan barcha fikrlar yozuv taxtasiga qayd qilib boriladi, qizig'i shundaki, bu yerda "sen noto'g'ri aytding", "bu xato" degan fikr o'qituvchi tomonidan aytilmaydi. Jamlangan fikrlarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini o'quvchi dars davomida berilgan darslikdagi mavzudan bilib oladi. "Aqliy hujum" metodining vazifasi qiyin vaziyatlardan qutilish choralarini topishga va keng doirada tafakkurlashga imkon beradi. Eng asosiysi, dars jarayonida ijodiy hamkorlik kayfiyatiga o'tiladi va guruh yanada jipslashadi.

O'qituvchining ish faoliyatida ko'pgina dars turlari o'z ifodasini topadi. Shulardan biri bosqichma – bosqich dars jarayonini tashkil etish. Bu bosqichlar quyidagilar:

- Tashkiliy ishlar;
- Chaqiruv bosqichi;
- Anglash bosqichi;
- Fikrlash bosqichi;
- Darsni yakunlash;

Bunday uyushtirilgan darslarda o'qituvchi ko'pgina maqsadlarga erisha oladi.

Bosqichma – bosqich dars o'tish jarayoni keng doirada ishlash, fikrlash, bilimlarni to'la – to'kis egallash imkoniyatini beradi.

- Tashkiliy ishlar.

Bu bosqichda o'qituvchi sinfning darsga tayyorgarligini tekshirib, davomatni aniqlaydi.

I-bosqich – Chaqiruv bosqichi.

Bu bosqichda o'quvchilar faoliyatining xilma-xil usullari amalga oshiriladi. Birinchidan, o'quvchilar mazkur bosqichda o'zlarining biror yangi mavzu yo'nalishidagi dastlabki bilimlarini namoyish etadilar va bu jarayon o'quvchini o'z bilimlarini tahlil qilishga, yangi mavzu bo'yicha fikr yuritishga, xotirasini charxlashga o'rgatadi.

Ikkinchidan, o'quvchilar faolligi, darsga bo'lgan qiziqishi dars boshidayoq ortadi va bu o'z samarasini beradi.

Uchinchidan, yangi mavzu bo'yicha o'quvchilar bor imkoniyatlarini ishga soladilar va shu mavzu bo'yicha o'z bilimlarini aniqlaydilar.

Chaqiruv bosqichida o'qituvchining maqsadi o'quvchilarning darsga qiziqishlarini oshirishdir.

II – bosqich – Anglash bosqichi.

O'quvchilar chaqiruv bosqichida o'zlarining mavzu yuzasidan dastlabki bilimlarini namoyish qilgan bo'lsalar, bu bosqichda esa yangi bilim va axborotlar oladilar.

O'qituvchi – o'quvchilar mavzu yuzasidan qanday bilimga egaliklarini aniqlab olib, shunga ko'ra yangilik berishi kerak. Mana shu maqsadga erishish anglash bosqichida amalga oshadi. Bu bosqichda yangi mavzu bo'yicha matn, masala bilan ishlash, ko'rgazmalardan foydalanish, testlar tarqatish kabi usullardan foydalanish mumkin.

Anglash bosqichining maqsadi o'quvchilarning faolligini oshirish, yangi mavzuga qiziqishlarini kuchaytirish, o'quvchilarning mustaqil fikrlab, o'z fikrlarini va tushunchalarini aniq bayon qilib berishdan iborat.

III – bosqich – Fikrlash bosqichi.

Fikrlash bosqichida o'quvchilar yangi bilim va ko'nikmalarini mustahkamlaydilar va o'z tushunchalarini, fikrlarini bayon qiladilar. Egallagan bilimlarini amalda qo'llab, o'quvchilar bir-birlari bilan fikr almashadilar. Bahs – munozara uyushtirish o'quvchilarning olgan bilimlarini yanada mustahkamlaydi.

- Darsni yakunlash.

Har dars o'qituvchining xulosasi bilan yakunlanadi. Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantiriladi va baholanadilar. Uyga vazifa beriladi.

Bosqichma – bosqich darsni “matematika” darsida amalga oshirishni jadvalda quyidagicha ifodalash mumkin.

O'qituvchi shaxsining kasbiy yo'nalishini eng yuqori pog'onasi pedagogik mahoratni belgilaydi. Pedagogik mahorat – o'qituvchi ijodkorligining oliy namunasi. Mahoratli o'qituvchi har doim ilg'or tajriba sohibi bo'la oladi. Shuning uchun texnologiya so'zi o'z tarkibiga ilg'or, novatorlik, ijodkorlik, kasb tafakkuri kabi tushunchalarni qamrab oladi. Bu tushunchalarning rivoji yuqorida aytib o'tganimizdek, pedagogik mahoratda ko'rinadi. Pedagogik mahorat o'zining yo'nalishiga qarab ta'limiy va tarbiyaviy bo'ladi.

Pedagogik texnologiyada didaktik masalalarning o'z yechimini topishi milliy dasturni ro'yobga chiqarishning muhim bosqichidir. Agar o'qituvchi qo'lida bilimga chanqoq o'quvchilar, fan maqsadiga mos mazmun – dastur, qo'llanma, darsliklar mavjud bo'lsa, u didaktik jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun bilish faoliyatining tashkiliy shakllaridan samarali foydalanib, ilg'or pedagogik texnologiyani amaliyotga izchil va ketma-ket joriy etishi mumkin. Shu boisdan o'qituvchi mahoratiga ko'p narsa bog'liqligi, uning pedagogik tiimda tutgan o'rni haqida batafsil to'xtalaman.

1. O'qituvchi davlat buyurtmasiga to'g'ri keladigan ta'lim – tarbiya maqsadini aniq va ravshan belgilashi kerakki, natijada ma'lum vaqt unga erishishni ta'minlaydigan didaktik jarayonni tuzish va joriy etish to'g'risida xulosa qilish mumkin bo'lsin.

2. O'qituvchi pedagogik tizimda belgilangan maqsadga to'g'ri keladigan o'quv-tarbiyaviy jarayon mazmunini o'quv dasturi bo'yicha chuqur egallashi, muntazam ravishda o'z pedagogik mahoratini ilmiy- texnikaviy taraqqiyot talablariga mos holda mustaqil ravishda kengaytirib borishi zarur.

3. O'qituvchi pedagogik tizimning tarkibiy elementi sifatida didaktik jarayon (o'quv – bilish faoliyati)ni amalga oshirish talablari bilan tanish bo'lishi kerak. Jadallashtirish didaktik masalalarni ma'lum vaqt doirasida bir muncha tez va yuqori saviyada hal eta oladigan didaktik jarayonni qo'llashni talab etadi.

4. O'qituvchi didaktik jarayonni amalga oshirishda o'qitishning samarali shakllaridan foydalana olishi kerak. O'qitishning tashkiliy shakllari to'g'ri tanlanishi pedagogik tizim elementlarining ma'lum qonuniyat asosida bir- birlari bilan bog'liq ekanligini bildiradi.

5. O'qituvchi pedagogik tizimning ishtirokchisi bo'lgan o'quvchining ta'lim mazmuni va tarbiya ta'sirini qay darajada egallayotganligini eng maqbul usullar yordamida doimo nazorat qilib borishi zarur. Bu to'g'rida olingan axborotlar esa pedagogik tizimni maqsadga muvofiq tarzda boshqarish imkoniyatini beradi yoki pedagogik tizimdagi qaysi elementning mazmuniga tuzatish kiritish kerak ekanligini aniqlaydi.

Pedagogik texnologiya o'zining pedagogika va boshqa fan yutuqlari bilan bog'liq xususiy nazariyasiga ega: u birinchi galda o'quv-tarbiyaviy jarayonni ilmiy asosda qurishga yo'naltirilgan, o'qitishning axborotli vositalaridan va didaktik materiallardan, faol metodlardan keng foydalanishga asoslangan o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatiga zamin yaratadi.

Maorifda muhim o'rin tutadigan boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalari o'quvchilarning yaxshi savod chiqarishlarini ta'minlash, ilk bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha ehtiyojlarni qondirish, ularda ma'naviy axloqiy fazilatlarni, mehnat ko'nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof – muhitga ongli munosabatda bo'lishni shakllantirish sanaladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim egallashlarini faollashtiradigan muhim omillardan biri – modulli ta'lim texnologiyalaridir.

Modulli ta'limning asosiy mohiyati, o'quvchilar modul dasturlari ustida mustaqil ishlab, ilm olishda belgilangan maqsadga erishadilar.

Modul dasturlari – dars matni yoki o'qituvchilar tomonidan o'quv materiallarini rejalashtirish emas, balki o'quvchilarning mazkur mavzuni dasturlari o'qituvchilar tomonidan tuzilib, unda modulning umumiy didaktik maqsadi, mavzuni o'rganish bosqichlari, o'quvchilar tomonidan bajariladigan o'quv faoliyati elementlari, ularning bilimni nazorat qilish yo'llari ketma-ket bayon etiladi.

O'qituvchi modul dasturlarini tuzishda va undan ta'lim jarayonida foydalanishda quyidagilarga e'tibor berishi zarur:

1. O'quv materialini tanlash. O'quvchilarga mustaqil o'zlashtirish uchun tavsiya etiladigan o'quv materialini qisman tanish va ular uddalay oladigan bo'lishi kerak.

2. Vaqtni tejash. O'quvchilar o'quv materialini dasturda belgilangan vaqt doirasida egallab olishlariga erishish zarur.

3. O'quvchilarda mustaqil va ijodiy ishlash ko'nikmalarini hosil qilish. O'qituvchi o'quvchilarni modul dasturi bilan ishlashga yo'llashdan avval ularda darslik va boshqa manbalar ustida mustaqil ishlash ko'nikmasi shakllanganligiga ishonch hosil qilishi kerak.

Bunda o'qituvchi darsda o'rganilishi lozim bo'lgan o'quv materialini ikki qismga ajratadi. Birinchi qismni o'qituvchi rahbarligida o'quvchilar ijodiy va mustaqil o'zlashtiradilar, ikkinchi qismni mustaqil bajaradilar.

4.O'quvchilar bilimini nazorat qilish: O'qituvchi modul dasturi qo'llaniladigan darslari uchun o'tgan mavzular yuzasidan test savollari tayyorlaydi va dastlabki joriy nazorat o'tkazadi. Shuningdek, yangi mavzu bo'yicha test savollari tayyorlaydi va o'quvchilar bilimini aniqlaydi.

Bundan tashqari modul dasturidan o'rin olgan har bir topshiriq yuzasidan bolalar bilimlarini aniqlash uchun o'quvchilar o'z-o'zini va o'zaro nazoratni amalga oshiradilar.

Modul dasturlari mazmuni va mohiyatiga ko'ra o'quvchilarning individual ishlashiga, ikkita o'quvchi hamkorlikda ishlashiga mo'ljallangan modul bo'lishi mumkin.

O'quvchilarning individual ishlashlariga mo'ljallangan modul dasturlari har o'quvchining qiziqishi, ehtiyoji, bilim saviyasini orttirish, o'zlashtirish darajasini aniqlash, kitob ustida mustaqil va ijodiy ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishni nazarda tutsa, kichik guruhlar uchun mo'ljallangan modul dasturlari yuqorida qayd etilgan omillar bilan bir qatorda o'quvchilar orasida o'zaro muloqot, hamkorlik, yordamni vujudga keltirish, o'quvchilarning birlari o'rtasida o'zaro nazoratni amalga oshirishni ko'zda tutadi.

Kichik guruhlar uchun tuzilgan modul dasturlaridan foydalanishda ikki xil yondashish mumkin:

1.Musobaqa usuli.

O'qituvchi o'quvchilarni teng sonli guruhlariga ajratadi. Modul dasturini tarqatib, guruhdagi o'quvchilar faoliyatini modul dasturdan o'rin olgan topshiriqlarni bajarishga yo'llaydi. Har bir topshiriq bajarilgandan so'ng, bahs, munozara, savol-javob musobaqa tarzda o'tkaziladi. Har bir guruhdagi o'quvchilar o'z faoliyatlarini o'rtoqlarining fikrini hisobga olgan holda baholaydi.

2.Kichik maslahatchilar usuli.

O'qituvchi sinf o'quvchilarini 5-6 ta teng sonli kichik guruhlariga ajratadi. Har bir guruhga kichik maslahat beruvchilar tayyorlaydi.

Kichik maslahatchilar guruhdagi o'quvchilarning faoliyatini nazorat qiladi, tegishli hollarda o'zaro yordam uyushtiradi. Topshiriqlar asosida savol-javob o'tkazadi. Kichik guruhlardagi o'quvchilar faoliyati o'zaro nazorat orqali baholanadi.

Modulli darsni quyidagicha o'tkazish tavsiya etiladi:

I. Tashkiliy qism.

II. O'tgan mavzular yuzasidan o'quvchilar bilimini test savollari yordamida aniqlash va baholash (dastlabki joriy nazorat).

III. O'tgan mavzuni yakunlash.

IV. Yangi mavzu bayoni:

- a) yangi mavzu bo'yicha tuzilgan modul dasturini tarqatish va o'quvchilarni modulning didaktik maqsadi bilan tanishtirish;
- b) o'quvchilarni yakka yoki kichik guruhlar tartibida modul dasturidagi topshiriqlarni bajarishga yo'llash;
- c) har bir o'quvchi faoliyati elementi topshiriqlarining to'liq bajarilishini nazorat qilish, tegishli ko'rsatmalar berish;
- d) har bir o'quvchi faoliyati elementi yakunida savol-javob yoki munozara o'tkazish.

V. Yangi mavzu yuzasidan test savollari yordamida o'quvchilar bilimini aniqlash:

- a) o'z-o'zini nazorat;
- b) o'zaro nazorat;
- c) o'qituvchi nazorati.

VI. Darsni umumiy yakunlash.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, ta'lim jarayonida modul dasturlaridan foydalanish o'quvchilarning bilim olishlarini faollashtiradi va o'qitish samaradorligini yuqori darajada bo'lishini kafolatlaydi.

Zamonaviy pedagogik texnologiya – hayotiy ehtiyoj

Zamonaviy pedagogik texnologiyani muntazam tahlil qilib borish, loyihalashtiruvchi vositalarning eng zarurini tanlash, metodlarning maqsadga

muvofigligini aniqlay bilish, olinishi zarur bo'lgan natijani oldindan tahlil qilish, ta'lim jarayonining yaxlitligini ta'minlash kabi tamoyillarga asoslangan holda va ilg'or pedagogik texnologiyalarni ta'limga joriy qilish, ayniqsa, xorijiy davlatlardagi pedagogik texnologiyalar tajribalaridan foydalangan holda o'zimizning sistemalashtirilgan ta'lim jarayonining zamonaviy pedagogik texnologiya tizimini vujudga keltirish borasida amalga oshiriladigan ishlarni umumlashtirish va hayotga qo'llash uchun quyidagi tadbirlarga amal qilish maqsadga muvofiqdir.

1. Ta'lim jarayoni qatnashchilari – o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida:

O'quv mehnati ish rejasini ishlab chiqilishi, ya'ni o'qituvchi bo'lim va bobni o'rganish rejasini tuzar ekan, ushbu rejada o'quvchi va o'qituvchi faoliyati o'z ifodasini topmog'i lozim. Ma'lumki, o'qituvchi tuzayotgan ish rejalarda darslarning o'rganilayotgan mavzularigina soatma-soat taqsimotini belgilaydi. Ushbu reja asosida o'qituvchi darslarni o'taveradi, hamda qaysi darsda qanday o'quv – biluv faoliyati amalga oshirilishidan o'quvchilar mutlaqo xabarsiz bo'ladilar. O'quvchi uchun har bir dars odatdagi darsga aylanib qoladi. Natijada u darsning passiv ishtirokchisigina bo'ladi. Zamonaviy pedagogik texnologiya tamoyillaridan biri bo'lgan o'quv mehnatining o'qituvchi – o'quvchi o'rtasida izchil va rejalashtirilgan taqsimoti o'qituvchidan ta'lim jarayonini izchil boshqarishni talab etadi.

2. Fanning ichki bog'lanishi va fanlararo bog'lanish imkoniyatlaridan maqsadli foydalanish.

Ma'lumki, har bir o'rganilayotgan kichik va yirik o'quv birliklari oldin o'rganilganlarga tayanadi. O'quvchining yangi bo'lim, bobni o'rganishga olib kirishda undagi mavjud bilimlarga tayanish, agar mavjud bilimlar yangi bobni, bo'limni o'rganishga yetarli bo'lmasa, oraliq tayyorgarliklar olib borish va shundan keyingina bilimlarni o'rganishning navbatdagi bosqichiga o'tish lozim

3. O'quv birliklarini (mezonlarini) belgilash.

O'quv birliklarini o'quvchi o'rganishi lozim bo'lgan tushunchalar, ta'riflar, qoidalar, qonunlar, hodisalar, voqealardan iborat bo'lib, ular orasidagi mantiqiy bog'lanishning ta'minlanishi shu mavzuni o'zlashtirilishiga olib keladi. O'qituvchi bob, bo'lim uchun ajratilgan soatlarda o'quvchilar o'rganishi kerak bo'lgan mezonlar hisoblanib, o'quvchi bilimni baholashning chegaraviy qiymati bilan o'lchanadi. O'qituvchi bu paytda nisbatan o'rtacha baho ishlatmaydi, balki aniq o'lchovlarga asoslangan holda ish olib boradi. O'quv rejasini tuzishda o'qituvchi o'quvchilar bilishi lozim bo'lgan o'quv birliklarini bo'limlar, boblar, choraklar bo'yicha aniqlaydi va o'quvchilarga topshiriq sifatida bo'limni o'rganishdan oldin vazifa qilib beradi. Berilgan topshiriqlar o'quvchining o'zlashtirish reytingini aniqlashda nazorat topshirig'iga o'tkaziladi.

4. Didaktik tahlil.

Bilimdagi notekisliklarning aniqlash, ularni to'ldirib va navbatdagi o'zlashtirish bosqichiga ko'tarish maqsadida diagnostikalash amalga oshiriladi. Diagnostikalash quyidagi maqsadlarni amalga oshiradi:

- O'quvchilar o'zlashtirish darajasini diagnostikalash;
- Bilimni yetishmovchiligini oldini olish;
- Bo'shliqlarni to'ldirish maqsadida maxsus topshiriqlar ishlab chiqish;
- Maxsus topshiriqlar bajarish soatlarini belgilash;
- Yakuniy diagnostik tahlil qilish.

Diagnostika ta'lim texnologiyasining navbatdagi bosqichi bo'lib, uning asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Asosiy o'zlashtirishdagi kamchilik soatini aniqlash, har bir o'quvchining bilim darajasini aniqlash, rejaning borishi kuzatishlar, kiritish yo'li bilan ta'lim jarayonining natijasi kafolatlanganligini ta'minlaydi. Test natijalarini diagnostik tahlil qilish 2 muhim vazifani hal etadi:

- 1) Qaysi o'quvchi qaysi o'quv birliklarida qiynaladi?
- 2) O'qituvchilar qaysi bilimlarini kengaytirishi lozimligini aniqlaydi.

5. Tuzatish kiritish.

Bo'lim, bobni o'zlashtirish darajasining diagnostik tahlil natijasi 50 dan kam ko'rsatgichni bersa, o'qituvchi ta'lim jarayonining borishida tuzatish kiritishi lozim. Tuzatish kiritishda quyidagilar bajariladi:

- qayta o'rganish lozim bo'lgan mavzularning o'rganish metodikasini ishlab chiqish;
- o'quvchilar o'zlashtirishi qiyin bo'lgan mavzularni aniqlash;
- o'quv rejasida tuzatish kiritish soatlarini belgilash;
- zarur hollarda orqaga qaytishni rejalashtirish.

6. Bo'shliqni to'ldirish. Qayta tuzatish kiritishdan maqsad olingan bilimlarda kamchiliklarni bartaraf etishdan iborat. Kamchiliklarni bartaraf etish bo'shliqni to'ldirish asosida amalga oshiriladi.

7. Kutilishi lozim bo'lgan natijani olish.

Bu element zamonaviy pedagogik texnologiyaning markaziy g'oyasi hisoblanadi. Pedagogik texnologiya ta'lim jarayonini natijasi kafolatli bo'lishini talab qilar ekan, jarayon borishining ko'zda tutilgan maqsad amalga oshirilishi va natijali bo'lishining rejalashtirilishini o'qituvchi oldiga vazifa qilib qo'yadi.

Darslarda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida dars o'tish usullaridan foydalanishning afzalliklari.

Jamiyatimiz hayotida yuz bergan keskin o'zgarishlar ta'limning maqsadi, mazmuni hamda vazifalarni yangilashni asosiy vazifalardan biri qilib qo'ydi. Buning natijasida o'quvch dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylandi, uning fikrlash doirasi kengaydi, undan ijodkorlik, tashabbuskorlik talab etila boshlandi.

“Ta'lim to'g'risida”gi Qonunda ham, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ham o'quvchining mustaqil fikrlash va ijodkorligiga alohida e'tibor berilgan.

Yosh avlodning ma'naviy, mustaqil kamoloti ko'p jihatdan nutq boyligini oshirish bilan bog'liqdir. Maktab o'quvchilarining nutqini o'stirish

barcha o'qituvchilarning, ayniqsa boshlang'ich sinf o'qituvchilarining asosiy vazifasidir.

Dars jarayonida o'qituvchi emas, balki bola faol bo'lishi, ko'proq ishtirok etib, bilimini oshirishi, fanlararo uzviylikni ta'minlash ta'limning ilg'or pedagogik texnologiyasida muhim rol o'ynaydi.

Bolalar mustaqil mutolaa qilish, malaka va ko'nikmalarni hosil qilish, ularning zihnini o'stirish, tez hisoblash ko'nikmalarini rivojlantirish, ijodiy fikr mahsulining o'sishida, fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda darslarda zamonaviy dars o'tish usullaridan foydalanish zamon talablaridan biridir.

O'qish, ona tili, matematika darslarini zamon talablariga javob beradigan holda o'qitishda “ O'yin musobaqa”, “ Teatrlashgan”, “ Test - sinov”, “Seminar”, “Sayohat” darslaridan foydalanish samarali natija beradi.

Zamonaviy dars o'tish usullarining o'ziga xos xususiyatlari:

- mavzuni muhokama qilish;
- erkin fikrlash;
- hamkorlikda ishlash;
- juft bo'lib, guruhlarda ishlash;
- davra suhbatlari, bahs- munozaralar;
- rollar ijro etish;
- muammolarni birgalikda hal etish uchun fikrlashga majbur etadigan aqliy hujum va hokazo.

Zamonaviy usullar o'qituvchilarning chuqur bilim olishi uchun qator imkoniyatlar yaratish bilan birga ularda o'z fikrini himoya qilish ko'nikmasini qat'iyligini shakllantiradi, hamkorlikda ishlashni o'rgatib, ularni bo'lg'usi hayotida uchrab turadigan qiyinchiliklarni birgalikda yengish tajribasi singdiriladi.

O'qituvchi darsda zamonaviy usullardan foydalanganda o'rganuvchilar fikrini ma'lum bir maqsadga yo'naltiradi, intizomni nazorat qiladi, eslatadi, o'qituvchilar bilimlarini holis baholaydi.

Darsda zamonaviy usullardan foydalanadigan o'qituvchi o'z ustida mutassil ishlashini, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni darsda joriy qilib borishini o'zining odatiy ishi deb hisoblaydi.

Zamonaviy usullardan foydalanish:

- o'rgatuvchi va o'rganuvchining an'anaviy rolini almashtiradi;
- sinf muhitini o'zgartiradi;
- o'rganilayotgan mavzuni qanday o'rganilishi kerakligini belgilab beradi;
- har bir o'quvchini faollashtiradi.

Bugungi kunda o'qituvchi o'qitish uchun faqat zaruriy axborotlarnigina tanlab olishi va o'quvchini bevosita mustaqil bilim olishiga o'rgatmog'i lozim. Bu jarayonda o'qituvchining pedagogik mahorati, uning chuqur bilimli, insoniy axloq – odobi muhim rol o'ynaydi. Hozirgi kunda zamonaviy usullardan foydalanib dars berishda o'qituvchi mohirlikdan ijodkorlikka intilib, ta'lim sohasini jonlantirishni talab etadi.

Biz uchun ilg'or deb tan olinayotgan bu usullarni birdaniga dars jarayoniga to'laligicha olib kirish qiyin. Chunki bunday usullarda dars o'tilishiga o'quvchilar ham, o'qituvchilar ham ko'nikma hosil qilishmagan. Zero, ta'lim tizimini isloh qilishning asosiy maqsadi o'quvchilar fikrlash qobiliyatini shakllantirishdan iborat ekan, ilg'or usullarni darslarimizga qadamma – qadam joriy etib borishimizni hayot taqozo etmoqda.

Aqliy hujum. O'quvchilarda hozirjavoblik (og'zaki, yozma) hissini rivojlantirishga yo'naltiradigan bu usul – “ jamoa orasida muayyan topshiriqlarni bajarayotgan va har bir o'quvchining shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish, hamda unda ma'lum jamoa (guruh) tomonidan bildirilayotgan fikrga qarshi g'oyani ilgari surish layoqatini yuzaga keltirishga” xizmat qiladi. O'quvchilarga umumiy savol tashlanib, berilgan javoblardan eng yaxshisi tanlanadi.

Bahs – munozara. Alohida dars ko'rinishida bo'lib, o'tilgan darsga doir bahsli, tortishuvli muammolarni ikki guruhga bo'linib hal etish. Bu usulni

qo'llagan o'qituvchi sinfni ikki guruhga ajratadi. Birinchi guruh "tarafdorlar", ikkinchi guruh "qarshilar". O'rtaga tayinlangan boshlovchi bahsni muvozanatga solib turadi. Guruh a'zolari navbat bilan mulohazalarini bayon qiladilar.

Interfaol. "O'quvchi – o'quvchi", "O'qituvchi – o'quvchi" o'rtasida sodir bo'ladigan muloqot usuli. Hamkorlikda ishlash vositasida dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi. Savol – javoblar juftlikda ishlash va guruhlarda faoliyat ko'rsatish jarayonida amalga oshiriladi.

Yo'naltirish. O'quvchiga yo'naltirilgan yondashuv uslubidagi yangi texnologiya bo'lib, mavzuga doir suratlarni tasvirlashda, grammatik qoidalarini tushuntirishda, o'zlashtirilishi qiyin mavzularni yetkazishda savollar bilan murojaat qilish. Mazkur usulning afzalligi shuki, o'qituvchi o'quvchiga tayyor narsani aytib bermay, mavzuni tushunib olishlariga imkon yaratadi.

Muzyorar. O'quvchilarning bir-birlari bilan tanishib olishlarida ishlatiladigan usul. Uni turli variantlarda qo'llash mumkin. Sinf ikki guruhga bo'linib, doira hosil qilinadi. Birinchi o'quvchi ismini aytadi, navbatdagi o'quvchi o'zidan oldingi o'rtog'ining nomini aytib, so'ngra o'zining ismini qo'shadi va shu tariqa davom ettiriladi. Oxirgi o'quvchi o'zidan oldingi barcha o'quvchilar nomini aytishi kerak. Qiziqarliroq bo'lishi uchun bolalar nomlaridan oldin ismlari bilan boshlanadigan sifatlarni qo'shishlari ham mumkin. Masalan, tirishqoq Tolibjon, sohibjamol Salima va hokazo.

Suratli diktant. O'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan, estetik didlarini, ijodkorlik ishtiyoqlarini shakllantiradigan o'qitish usuli. Sinfxonadagi stullar orqama – orqa qo'yiladi. O'quvchilar ham bir-birlariga orqa o'giran holda surat chizadilar. Alohida dars ko'rinishidagi bu usulda birinchi o'quvchi manzarani bayon qiladi, o'rtog'i esa uni suratga tushiradi. Diktant davomida o'quvchilar almashadilar va surat chizib bo'lingach, u tasvirlanadi.

Chigil yozdi. Dars boshlanishida bu usul o'quvchilarni ruhiy tayyorlash va dars yarmida o'quvchilar diqqatini mashg'ulotning keyingi bosqichiga chorlash uchun qo'llaniladi.

O'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini o'stirish va teran fikrlashga, o'z fikrlarini ravon ifodalashga o'rgatishda zamonaviy usullardan foydalanishning ahamiyati katta. Bolalarning barkamol avlod bo'lib yetishishida so'zlashish madaniyati, to'g'ri va mantiqli gap gapira olish qobiliyati ham mujassam bo'lishi lozim.

Bugungi ta'lim jarayonida ona tili, pedagogika va psixologiya fanlarining hamkorligi muhim. Chunki shaxs rivojlanishida tafakkur taraqqiyoti uchun pedagogik faoliyatga psixologiya ilmini jalb etishni zamon taqozo etmoqda.

Boshlang'ich sinflarda ilg'or pedagogik texnologiyaning "Klaster" strategiyasidan foydalanish ham yaxshi samara beradi.

Klaster – pedagogik strategiya bo'lib, o'quvchilarni biror mavzu yuzasidan erkin va ochiq fikrlashga undaydi. Bu fikrlashning tartibsiz shaklidir.

"Klaster" bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

- 1) Mavzuga doir kalit so'z varaqning yoki doskaning o'rtasiga yozib qo'yiladi.
- 2) Mavzuni yoritishda yordam beruvchi so'zlar kalit so'z atrofida tartibsiz yoziladi.
- 3) Kalit so'z atrofida yozilgan so'zlardan bir-biriga bog'liq bo'lgan so'zlar belgilab qo'yiladi.
- 4) Mavzuga doir so'zlar vaqt tugaguncha yoki qolmagunga qadar yoziladi.

"Klaster" ni qo'llashda ma'lum qonun-qoidalar mavjud:

- 1) Mavzuga doir so'zlarni yozayotganda ularning sifatini tahlil qilmasdan, esga kelganini yozish kerak.
- 2) Yozayotganda orfografik xatolarga e'tibor bermang.
- 3) Vaqt tugamagunicha yozishni to'xtatmang.

4) Tanlangan mavzu butun sinf jamoasiga tanish bo'lishi kerak.
Masalan: “O'lchov birliklari”, “Vaqt birliklari”, “Juft sonlar”, “Matematik terminlar”.

“Klaster” dan asosan o'quvchilar bilimini mustahkamlashda, bo'lim yuzasidan umumlashtiruchi darslarni o'tkazishda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Bu metod bo'yicha o'tiladigan dars:

- O'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi.
- O'quvchilarning aqliy rivojlanishini o'stiradi.
- Mustaqil fikr yuritishga ko'mak beradi.

Dars noan'anaviy shaklda bo'lib, 4 bosqichda amalga oshiriladi. Topshiriqlarni berishdan oldin har bir o'quvchiga tayyor jadval chizilgan varaqlar tarqatiladi.

I bosqichda o'quvchilar jadvalda berilgan kalit so'z asosida yozib chiqadilar.

II bosqichni bajarishga barcha o'quvchilar barobar kirishishlari shart. Bu bosqichda har bir birlik yoniga mos soni qo'yib chiqadilar

O'quvchilar II bosqichni bajarib bo'lishgach, III bosqichga o'tadi. Bu bosqichda o'quvchilar eng katta vaqt birliklarini to'g'ri chiziq bilan, kichiklarini esa egri chiziq bilan tutashtirib chiqadilar.

“Klaster” usulini qo'llashda boshqacha turni ham qo'llash mumkin. Bu turdagi “Klaster” usulida fikrlar bayon etilgandan so'ng har bir fikr yoki so'zni toifalarga ajratib chiqadilar.

Usulning maqsadi:

- O'quvchilar so'z boyligini oshirish;
- Yozma nutqni takomillashtirish;
- Fikrlash qobiliyatini oshirish;
- Toifalarga ajrata olish qobiliyatlarini rivojlantirish.

“Kubik” usulidan ham matematikada kengroq foydalanish mumkin.

Geometrik shaklga ega bo'lgan kubikning 6 ta tomoni borligi hammaga ma'lum. "Kubik" usuli ham shundan kelib chiqqan holda har bir tomoni bir savol bilan murojaat etadi, ya'ni:

- 1) Nomi;
- 2) Tuzilishi;
- 3) Taqqoslash;
- 4) O'xshatish;
- 5) Vazifasi;
- 6) Yaxshi, yomon tomonlarini yoritish;

Masalan: 1) 54, 29 sonlari

1. Nomi: 2 xonali sonlar yoki raqamlar;
2. Tuzilishi: 5 ta o'nlik 4 ta birlik, 2 ta o'nlik 9 ta birlik;
3. Taqqoslash: $54 > 29$.

2) 36, 48 sonlari

1. Nomi: 2 xonali sonlar yoki raqamlar;
2. Tuzilishi: 3 ta o'nlik 6 ta birlik, 4 ta o'nlik 8 ta birlik;
3. Taqqoslash: $36 < 48$

3) Uchburchak figurasi.

1. Uchburchak
2. 3 ta uchi, 3 ta tomoni bor
3. To'rtburchakning 4 ta uchi bor, bunda esa 3 ta
4. Uyning tomiga o'xshaydi.

"Aqliy hujum" usulida har bir o'quchida "Insert" jadvali bo'lishi kerak. Bu jadvalni fikrlash bosqichida o'quvchilar to'ldirishadi.

Aqliy hujum usuli

- I. Chaqiruv bosqichi – 10'
- II. Anglash bosqichi – 15'
- III. Fikrlash bosqichi – 15'

Insert jadvali tuzilishi:

V- bilgan ma'lumot

Q- yangi ma'lumot;

? – qo'shimcha ma'lumot.

Darsda “Aqliy hujum” usulidan foydalanishdan namunalar:

I. Chaqiruv bosqichi – 10'

Savol: Matematikaga hissa qo'shgan Sharq allomalarini aytib bering (sinf xattaxtasida o'qituvchi tomonidan qayd etib boriladi):

- Al Xorazmiy;
- M. Ulug'bek;
- A. Jomiy;
- Ibn Sino;
- Navoiy;

II. Anglash bosqichi – 15'

Bu bosqichda o'qituvchi yordamida o'quvchilar javobni yana ham to'ldirishadi.(insert jadvali tarqatiladi.)

III. Fikrlash bosqichi – 15'

Bu bosqichda o'quvchilar “Insert” jadvalini to'ldirishadi. O'qituvchi o'quvchilarga misol berib, jadvalni ko'zdan kechiradi.

“Insert” jadval orqali o'qituvchi o'quvchisi qancha bilimga ega, qancha yangi bilim egalladi va qaysi ma'lumotlar haqida qo'shimcha yangilik berishi lozimligi yaqqol ko'rinadi.

“Muzyorar” usuli.

Dars jarayonida, o'tilgan mavzularni mustahkamlashda, darslarni umumlashtirishda qo'llaniladi.

Masalan, o'qituvchining o'quvchilarga barcha matematik terminlarni ayting savoliga javob berishda bu usuldan foydalansa qiziqarli chiqadi. Bunda bir o'quvchi bir terminni aytadi, ikkinchi bu terminga yana bir termin qo'shib aytadi. Uchinchi 2 ta terminga 3 ta terminini qo'shadi.

O'yinning maqsadi nafaqat matematik terminlarni takrorlatish, balki o'quvchilar xotirasini ishlatishdir, shakllantirishdir.

1- O'quvchi – qo'shiluvchi;

2- O'quvchi – qo'shiluvchi, ayirma;

3- O'quvchi - qo'shiluvchi, ayirma, qavs;

4- O'quvchi – qo'shiluvchi, ayirma, qavs, ko'paytma;

O'quvchi – qo'shiluvchi, ayirma, qavs, ko'paytma, bo'linma...

Shunday ekan, o'qituvchi darsda turli pedagogik usullardan foydalansa, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida to'siq yo'qoladi, bolalarning xarakteri kengroq ochiladi; kuzatuvchanlik, xotira diqqati kuchayadi; chunki darsda majburiy bilim berish bo'lmay, ilmni ixtiyoriy qabul qilish albatta ijobiy natijaga olib keladi.

2.2. 1-2 sinf matematika darslarida pedagogik texnologiyalaridan foydalanish

O'quvchilarda hozirjavoblik hissini rivojlantirish, bahs-munozara, erkin fikrlashga asoslangan tafakkur tarzini shakllantirishdan iborat. Hozirda keng qo'llanib kelayotgan interfaol metodlar turlari juda ko'p bo'lib, ularning hammasi ham boshlangich ta'limda qo'llash uchun yaroqli emas. Bunga 1-navbatda boshlangich sinf o'quvchisining o'qish, yozish tezligining kichikligi va sinfda aksariyat hollarda 30 tadan ortiq o'quvchi o'qishi bo'ladi. Interfaol metodlar nisbatan kichik auditoriyalarga (30 tagacha) va ko'proq uzluksiz ta'lim tizimining o'rta va yuqori bo'ginlariga mo'ljallangan bo'lib, boshlangich sinflarda qo'llash tajribalari juda kam. Shuning uchun yangi texnologiyalarning faqat boshlangich sinf matematika darslarida qo'llash mumkin bo'lganlari haqida so'z yuritamiz.

Interfaol metod sinfda o'tiladigan mavzular yuzasidan muammoli vaziyatlarni muhokama qilishda “Aqliy hujum”, “Adashgan zanjirlar”, “Savol bering”, “Insert”, ”BBB”, “Bahs - munozara “, “Muammoli savollar”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Burchaklar metodi“, “Kubiklar” metodlari asosida bahs, munozara orqali ularni yechimini topishda yaqindan yordam beradi.

Yoki biror ifoda qiymatini qulay usulda hisoblash yuzasidan takliflar yig'iladi. Masalan: 1 dan 20 gacha bo'lgan barcha natural sonlar yig'indisini topish yo'li so'raladi. Hamma takliflar qabul qilinadi. Ularning bir nechitasi bo'yicha yig'indi

topiladi va usullar taqqoslanadi. Eng qulay usulni taklif qilgan guruh yoki juftlik taqdirlanadi.

Darsda berilgan masala, misol va topshiriqni juft bo'lib hal qilishi ham o'quvchilarni o'zaro fikr almashishga, bir – birini to'ldirishi, kerak bo'lsa bir – biriga o'rgatishga o'rgatadi. Bunday usulni “Juftlikda ishlash” deb ataladi. O'qituvchi o'quvchilar mustaqil hal qilishi mumkin bo'lgan istalgan vazifani juftlikda topshiradi. Bunday topshiriqni ijodiy xarakterda bo'lishi maqsadga muvofiqroqdir.

Buning uchun quyidagi metodik usullarni tavsiya etamiz.

1 – SINF

“Sehrli boqqa sayohat” mavzusida musobaqa darsi.

Bu musobaqa darsida o'quvchilar uchta guruhga bo'linadi va guruh boshliqlari tayinlanadi.

Ifodalar tuzish va yechish.

1. Bu o'yinda uchala guruhdagi hamma o'quvchilar ishtirok etadilar.

Ularning har biri 10 ichida qo'shish va ayirishga doir ifodalar yuzib yechishadi.

Masalan:

$$3-1=4$$

$$6-1=5$$

$$4-2=6$$

$$8-2=10$$

$$10-3=7$$

$$5-2=7 \text{ va hokazo.}$$

Ifoda tuzib, ishlab bo'lgan o'quvchilar ikkitalab to'g'ri va teskari sanashadi. O'quvchilar tuzgan ifodalarning yechimi tekshirilib, yutuq va kamchiliklari ko'rsatiladi. Ifodalarni to'g'ri hisoblagan guruhga qizil yulduzcha, bitta xatto qilgan guruhga ko'k yulduzcha, bitta guruhga ko'k yulduzcha, ikki va undan ortiq xato qilgan guruhga sariq yulduzcha beriladi.

2. O'quvchilarga “Tun” so'zi aytilishi bilan bolalar boshlarini parta ustiga qo'yadilar. O'qituvchi ertak aytadi:

- Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim zamonda bir sehrli bog'bo'lgan ekan. Bog'da daraxtlar qishin – yozin ko'm – ko'k bo'lib, mevalari pishib yotarkan. Qo'llarida oltin baliqlar suzib yurarkan, - deb sinf taxtasiga uzum, nok va olmalari pishib turgan daraxtlar hamda uning yoniga qo'l qo'yadi.


Bolalarga “Kun” deyilishi bilan ular uyg'onishadi.

O'quvchi sinfdagi ayrim “Bilmasvoy” o'quvchilarga ishora qilib:

- Bolalar, ularga yordam beramiz?
- Ha, yordam beramiz!

Endi har bir guruh uchun sehrli boqqa bittadan uycha qurib olamiz.

O'qituvchi uychaga misollarni yozib qo'ygan bo'ladi. O'quvchilar misollarning javobini qalam bilan yozadilar.



Uychadagi misollarning tez va to'g'ri yechilganligiga qarab, guruhlarga yulduzchalar beriladi.

3. Daraxt bargi uzilib, uning orqasiga yozilgan topshiriqlarni og'zaki bajarish.

Topshiriqlarni to'g'ri bajargan o'quvchi daraxtdagi olma va nokdan olib o'tiradi. Barg orqasida noma'lum sonni topishga doir misollar yozilgan bo'lishi ham mumkin.

Bunda navbati bilan har bir guruhdan bittadan o'quvchi chiqadi. Qaysi guruh o'quvchilari olma va noklardan ko'p olgan bo'lsa, o'sha guruh qizil yulduzcha, qolganlari ko'k va sariq yulduzcha olishadi.

4. Dam olish daqiqasi o'tkaziladi.

Ikki bizga do'st emas,
Uchni yomon ko'ramiz,
“4” bo'lsa ham mayliga,
“5” dir bizning do'stimiz.

5. Guruh boshliqlarining musobaqasi.

Bunda guruh boshliqlari rasmi varaqlardan tanlab olib, rasmdagi sonlar ishtirokida 5 tadan misol tuzib yechishadi.

$6+3=9$	$4+3=7$	$4+2=6$
$3+6=9$	$3+4=7$	$2+4=6$
$9-3=6$	$7-3=4$	$6-2=4$
$9-6=3$	$7-4=3$	$6-4=2$
$6-3=3$	$4-3=1$	$4-2=2$

Misollar tekshirilib baholanadi.

Dars so'ngida guruhning olgan yulduzchalari va mevalariga qarab yutuq va kamchiliklari aytilib, egallagan o'rinlari e'lon qilinadi.

Dars faol qatnashgan har bir guruh o'quvchilariga “5” ball beriladi.

Vazifa: 2 ni qo'shish va ayirish jadvalini yod olish. Bunday darslar o'quvchilarning faolligini oshiradi. O'quvchilar o'z guruhlarining g'olib bo'lishi uchun harakat va navbatdagi darslarni orziqib kutadilar.

2 – SINF

“Savol bering” metodidan o'qituvchi yangi mavzuni mustaqil o'rganishni tashkil etishda yoki o'tgan mavzu qanday o'zlashtirilganini tekshirish uchun foydalanishi mumkin. Bunda mavzuga oid matn kitobdan o'qiladi. O'qish davomida tug'ilgan savollarni o'quvchilar yozib boradi. Shunda o'quvchi matnni befarq o'qimaydi, chunki u savol tuzishi va savolni o'qib berishi kerak bo'ladi. O'tilgan mavzu yuzasidan o'qituvchi ko'rsatgan namuna bo'yicha savollar tuzdirish ham yaxshi natija beradi. Ajratilgan vaqt tugaganidan keyin savollar o'qiladi. Savollarga

xohlagan o'quvchi yoki to'g'ri javob topilmasa, savol bergan o'quvchi javob beradi. Hamma o'quvchi savol berishiga erishish kerak. Ishni juftlikda ham olib borish mumkin. Bunda savolni juftlik tuzadi. "Savollar" texnologiyasini qo'llash imkoniyatlari katta. Masalan o'qituvchi har bir darsning 5 daqiqasini shunday savol tuzishga bag'ishlashi mumkin. Savollarni yakka holda va juft bo'lib, keyinroq mavzu bo'yicha 4 kishi maslahatlashib tuzishni topshiriladi.

Masalan: 2-sinf matematika darsidan ko'paytirish va bo'lish mavzulari o'tilgach, marta ortiq va marta kam munosabatlari tushuntiriladi. Shu munosabatga bog'liq bo'lgan savol – masalalar tuzish topshiriladi. Buning uchun o'qituvchi bir necha namuna keltirish ham mumkin. Lekin sinf ixtiyoriga qo'yishi ham mumkin.

Misol uchun:

“2 sonidan 2 marta katta sonni ayting”.

“Qanday son 3 dan 4 marta katta?”

“12 soni 6 dan necha marta katta?”

“5 soni 20 sonidan necha marta kichik?”

“O'ylagan sonni 3 marta kamaytirib, 3 hosil qilinsa, o'ylagan son necha?” kabi turli – tuman savollarning tuzilishi munosabatning o'quvchilar tomonidan yana chuqurroq tushunilishiga sabab bo'ladi.

Mavzu: Ko'paytirish va bo'lish orasidagi o'zaro bog'lanish.

Maqsad: a) Ko'paytirish va bo'lish orasidagi bog'lanishni tushuntirish.

b) Teskari masala tuzishga o'rgatish

v) Mantiqiy fikrlashga o'rgatish.

Tarbiyaviy maqsad: O'quvchilarning ma'naviy – ma'rifiy ongini o'stirish. Mehnatga muhabbat ruhini, tejamkorlikni shakllantirish. Kasbga yo'naltirish.

Dars turi: Aralash.

Metod: guruhlariga bo'lish, aqliy-hujum, o'yin-musobaqa

Ko'rgazmali qurollar: Sonli kartochkalar, geometrik shakllar, magnitofon, paxta, sehrli so'zlar yozilgan kartochkalar, she'riy rasmlar.

Darsning borishi.

I. Guruhlarga bo'lish (5 daqiqa).

Stolda 4 ta shakl: aylana, uchburchak, kvadrat, oval.

O'quvchilarga guruhlarga bo'linish tartibi tushuntiriladi. Partaning ustiga shakllar qo'yiladi. Kitob o'quvchilarning qo'lida bo'ladi. Shakllarni ko'rstib, o'quvchilar guruhlarga yig'iladilar. Shakllarning nomi so'raladi va unga qisqa ta'rif beriladi.

Nutqimizda sehrli "Rahmat", "Iltimos", "Kechirasiz" so'zlarini ishlatish kerakligi aytib o'tiladi.

Aylana – hech qanday burchagi yo'q, dum – dumaloq.

Uchburchak – uchta burchagi bor. Uchburchak bir necha turli bo'ladi. Masalan: barcha tomonlari teng va h.k.

Kvadrat – to'rt tomoni teng to'g'ri to'rtburchak.

Oval – tuxumsimon shakl.

II. Aqliy hujum (2 daqiqa).

Ko'paytirish – so'zi sinf taxtasiga yoziladi. Savol – javob o'tkaziladi.

- 1) Ko'paytirish hadlari va natijasi nomini ayting. (1– ko'paytuvchi, 2 - ko'paytuvchi, ko'paytma)
- 2) Necha xonali sonlarni ko'paytirishni bilamiz? (1 xonali sonlar ko'paytirishni)
- 3) Sinf taxtasiga tayyor misol qo'yiladi.

$$3 \cdot 4 = 12$$

$$12 : 3 = 4$$

$$12 : 4 = 3 \quad 3 \text{ va } 4 \text{ ko'paytuvchilar}$$

Kitobdagi rasmga qaraladi.

- 4) 5 nafar o'quvchi sonli kartochkalar orqali ko'paytirish amalini ko'rsatadilar.

Shu sonlar yordamida ikkita bo'lishga doir misol tuziladi.

$$5 \cdot 2 = 10 \quad (\text{rasmni kitobdan kuzatiladi})$$

$$10 : 5 = 2 \quad (\text{qoida kitobdan o'qiladi}) \quad (5 \text{ daqiqa})$$

$$10 : 2 = 5$$

4 xil rangdagi doirachalar tayyorlab qo'yiladi. (10 tadan: qizil – 3 ball; ko'k – 2 ball; sariq – 1 ball; qora – 0 ball.)

III. Darslik bilan ishlash (5 daqiqa)

Darslikda berilgan misollar har bir guruhga bo'lib tarqatiladi.

1-guruh	2-guruh	3- guruh	4- guruh
$6 \cdot 4 = \square \square$	$9 \cdot 2 = \square$	$5 \cdot 3 = \square$	$7 \cdot 2 = \square$
$24:6 = \square$	$18:9 = \square$	$15:5 = \square$	$14:7 = \square$
$24:4 = \square$	$18:2 = \square$	$15:3 = \square$	$14:2 = \square$

Misollarni yechib bo'lgan guruh a'zolari chapak chaladilar. Guruh a'zolaridan bitta o'quvchi chiqib, misollarning yechilish tartibini tushintirib beradi. O'quvchilarning javoblariga qarab shakllar beriladi.

Misollar daftarga yoziladi.

Darslikda berilgan masala kitobdan o'qiladi. Paxta haqida suhbat o'tkaziladi.

- O'zbekistonning boyligi nima? "Paxta"
- Paxta davlatning qaysi ramzlarida bor? "Gerbda"
- Paxta qachon teriladi? "Kuzda"
- Paxtadan nimalar olinadi? "Paxta tolasi, yog' "
- e)

1) Bor edi – 2 tup paxta	}	? Paxta
Ochilgan - 3 tadan paxta		

Yechish: $2 \cdot 3 = 6$ (ta)

Javob: jami 6 ta paxta

2) Jami 6 ta paxta

Ochilgan 3 tadan paxta

Bor edi - ? tup paxta

Yechish: $6:3=2$ (tup)

Javob: 2 tup paxta

3) Jami 6 ta paxta

Bor edi – 2 tup paxta

Ochilgan - ? tadan

Yechish: $6:2=3$ (tadan)

Javob: 3 tadan paxta ochilgan.

Har bir guruhdan o'quvchilar chiqib masallarni yozadilar. G'olib guruhlar qizil doirachalar bilan taqdirlanadilar. Qolgan o'quvchilarga ham javoblariga qarab doirachalar beriladi.

IV. “Domino” o'yini

4 ta guruhga kartachalar tarqatiladi. Bu o'yin (q) va (-) ni sedan chiqarmaslik va farqini bilish uchun kerak. Guruhlar taqdirlanadilar.

Darslikda berilgan masala mustaqil o'qitiladi. (5 daqiqa)

Bu orada magnitofon orqali musiqa eshittiriladi.

1) $4 \cdot 2 = 8$ (ta)

2) $4q6 = 10$ (ta)

Masalar farqi so'raladi.

1) Nima uchun birinchi masala ($\bullet$) bilan, 2-masala (q) bilan bajariladi?

Guruhlar taqdirlanadilar.

V. Uy vazifalarini tekshirish. (3 daqiqa)

Guruhlardan vakillar o'qiydilar.

Masala:

Misol:

$$2 \cdot 7 = 14(\text{kg})$$

$$7 \cdot 3 = 3 \cdot 7$$

$$14 \cdot 2 = 2 \cdot 14$$

$$9 \cdot 8 = 8 \cdot 9$$

$$5 \cdot 31 = 31 \cdot 5$$

VI. Uyga yangi vazifa berish. (2 daqiqa)

Vazifani o'quvchilar kundalik daftariga yozib oladilar.

VII. Xulosa.

1. Bugungi dars sizga yoqdimi?
2. Darsda nimalarni bilib oldingiz?
3. O'zingizni qanday his qildingiz?

Guruhlarning doirachalari sanaladi va kundaliklarga baho qo'yiladi.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosa

Bugungi kunda o'qituvchilar darslarida nafaqat o'quvchilarga ma'lum bilimlarni o'rgatish, balki dars jarayonida o'quvchi shaxsining ayrim tomonlarini shakllantira yoki rivojlantira olishlari darkor. Ushbu maqsadda o'qituvchilar uchun interfaol usullarida dars o'tishda o'rganilmoqda.

Interfaol usuli yaratilishidan asosiy maqsad:

- o'qituvchi va o'quvchi, o'quvchi va o'quvchi hamkorligini shakllantirish;
- O'quvchilarga zarur bo'lgan bilim, ko'nikma malakalarini interfaol usullar orqali yetkazish;
- O'quvchilarni mustaqil fikrlashga, o'z fikrlarini asoslay olishga imkon yaratish.

3-BOB. Pedagogik tajriba - sinov ishlarini tashkil etish va uni o'tkazish

3.1. Pedagogik tajriba – sinov maqsadi va vazifalari

Bir necha bosqichda o'tkazilgan pedagogik tajriba – sinov jarayonida biz quyidagi asosiy vazifalarni belgilab oldik:

Interfaol metodlari asosida boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirishining sifatini o'rganish va tahlil qilish.

Interfaol metodlarni amalga oshiruvchi usul va vositalar hamda metodlarni aprobatsiya qilish asosida tushunchalarni shakllantirishning integrativ (yaxlit) natijalariga erishish.

Interfaol metodlarni amalga oshirishni osonlashtirishga imkoniyat yaratadigan, o'quvchilarning boshlang'ich sinfdagi matematika darslarini

samarali o'zlashtirishni shakllantiradigan o'quv mashg'ulotlarining tashkiliy shakli tizimini bir yo'nalishga to'g'rilash.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematika darslarini mukammal o'zlashtirishda, bilim va tafakkurlarini shakllantirishda, o'rganilayotgan o'quv predmeti sifatini oshirishda, interfaol metodlarini foydalanishini amalga oshirishning ta'sirini kuchaytirish.

Tajriba-sinov jarayonining birinchi bosqichida boshlang'ich sinf matematika darslarida interfaol metodlaridan foydalanishni kuchaytirish bo'yicha tayyorgarlik ishlari olib borildi. Olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlari, falsafiy, psixologik, pedagogik muammolar yoritilgan ilmiy asarlar o'rganildi va tahlil etildi. Birinchi bosqich jarayonida pedagogik tajriba-sinov ishlarining mazmuniga mos uslubiy qo'llanma ishlab chiqildi. Shu davr ichida tadqiq etilayotgan muammo bo'yicha Toshkent shahar Hamza tumanidagi 30-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida 270 nafar o'quvchi, 11 ta boshlang'ich sinf o'qituvchilari orasida maxsus anketalar asosida so'rovnomalar o'tkazildi. Unda boshlang'ich sinf matematika darslarini interfaol metodlar asosida shakllantirish haqidagi ilmiy tushunchalarni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi sifat va samaradorligini o'rganish va tahlil qilish vazifasi qo'yildi. Mazkur muammoni hal etish o'rganilayotgan faoliyatni mantiqiy jihatdan tahlil etish nuqtai nazaridan amalga oshirildi. Mazkur bosqichda olib borilgan tadqiqot natijalarining chuqur tahlillari asosida quyidagi xulosalarga keldik:

Boshlang'ich sinf amaliyotida o'qituvchilar o'quvchilarga dars mavzusi mazmunini rivojlantirishda asosan ta'limning zamonaviy interfaol metodlaridan foydalanadilar. Dars jarayonida berilayotga bilimlarning asosiy mazmuni, o'zlashtirilayotgan bilimlarga qo'yilgan ma'lum qonuniyatlardan chiqmagan holda o'quvchilar uchun tayyor qilinib taqdim etiladi.

Mazkur bosqichda falsafa, psixologiya va pedagogika, shuningdek boshlang'ich sinflar amaliyotiga oid ilmiy adabiyotlar o'rganib chiqildi. O'quvchilarda matematik tushunchalarni shakllantirish muammolari, mavjud matematik tushunchalarning belgilarini aniqlash, o'xshash tushunchalarni farqlash,

bog'liqlik va munosabatlarni aniqlash masalalari o'rganildi va tatqiq qilindi. Matematik tushunchalarni shakllantirishning boshlang'ich bosqichida mashqlar tizimini amalga oshirish va ulardan foydalanish samaradorligi isbotlandi.

Bu bosqichda boshlang'ich sinf matematika darslarida pedagogik texnologiyalardan qo'llanilishi tatqiq etildi, darslarda pedagogik texnologiyalardan foydalanib matematik tushunchalarning o'рни, ahamiyati, o'zlashtirishga ko'rsatadigan ta'siri darajasi o'rganildi.

Ikkinchi bosqichda boshlang'ich sinflarda matematikaning pedagogik texnologiyalar darajasini aniqlash maqsadida Toshkent shahar Hamza tumani 30-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabidagi 4 "a" – 4 "b" sinflar orasida pedagogik tajriba-sinov ishlari olib borildi. O'quvchilarning tanlagan kasblari bo'yicha boshlang'ich sinflarda olib borilayotgan dars jarayonlari kuzatildi. Amalga oshirilgan ishlar samaradorligini aniqlash maqsadida pedagogik tajriba-sinovni boshlash va yakunlash davrida o'quvchilarning darsga qiziqishlari munosabatlarini miqdoriy va sifat o'zgarishlari aniqlandi. Tadqiqotning ilmiy farazlari asosida boshlang'ich sinf matematika darslarda pedagogik texnologiyalardan foydalanish bo'yicha qator tadbirlar amalga oshirildi. Ilmiy-tadqiqot ishi muallifi tomonidan boshlang'ich sinflarda o'rganilayotgan boshlang'ich sinflarda pedagogik texnologiyalarning xususiyatlari va shu asosda o'quvchilarda ilmiy tushunchalarni shakllantirishga doir o'quv-uslubiy qo'llanma hamda uslubiy tavsiyanomalar yaratildi. Ular boshlang'ich sinf o'quvchilari va o'qituvchilari orasida o'tkazilgan pedagogik tajriba-sinov ishlarida qo'llanildi. Unda o'quvchilarga ilmiy tushuncha va o'zlashtirayotgan bilimlaridan ko'nikma va mahoratlarini shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning mavjud shakl va vositalari asosida samarali qo'llash va amalga oshirish tadbirlarini sinovdan o'tkazish asosiy maqsad qilib olindi.

Pedagogik tajriba-sinov jarayonida boshlang'ich sinflar o'qituvchi va o'quvchilarining tadqiqotimizda ilgari surilgan yangi uslubiyotga nisbatan munosabatlariga diqqat-e'tibor qilindi, ta'limda qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalarni amalga oshiruvchi vositalarga nisbatan ularning mulohazalari, bunda yuzaga keladigan ba'zi qiyinchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlari tahlil

qilindi. Shu bilan birga, pedagogik texnologiyalarning ba'zi vositalari orqali o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilayotgan o'quv materiallarining sifat va samaradorligini oshirish muammolari o'rganildi.

Pedagogik tajriba-sinov jarayonining uchinchi bosqichida, ilgari surilgan farazlarning hayotiyligi, yangiligi, ishlab chiqilgan tavsiyalarning samaradorligi bo'yicha tajriba-sinov natijalari umumlashtirildi. O'qituvchilar va o'quvchilarning tajriba-sinov ishlari boshlanishidan oldingi va undan keyingi davrda boshlang'ich sinf matematika darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'rganish asosida ta'limni tashkil etish hamda ilmiy tushunchalar va bilimlar samaradorligini oshirish borasidagi mahoratlari dinamikasi o'rganildi. Tadqiqotdagi asosiy g'oya, qarash va qoidalar mana shu bosqichda ilmiy shaklni oldi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining pedagogik texnologiyalar asosida matematik tushunchalar vositasida o'rganish jarayonida ilmiy tushunchalarni rivojlantirish va pedagogik texnologiyalarni amalga oshirish uchun qo'llaniladigan barcha shakl va vositalar hamda metodlardan foydalanildi. Ularning sifat va samaradorligini tekshirish maqsadida tajriba-sinov jarayoniga ta'limning muntazam shakli joriy etildi. Boshlang'ich sinf ta'limi jarayonida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilayotgan bilimlarning puxtalik va mustahkamlik darajasiga, o'quvchilarning boshlang'ich sinf matematika darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish bo'yicha darslarda bilimlarni egallash va o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishlarida mahorat va ko'nikmalarni oshirishga, nafaqat bir o'quv predmetidan balki turli o'quv fanlaridan o'zlashtirilayotgan bilimlar majmuini rivojlantirish samaradorligiga pedagogik texnologiyalarning ta'siri o'rganildi. Mazkur bosqichda pedagogik texnologiyalarni amalga oshirish va qo'llashning usul va vositalarini takomillashtirish bilan birga o'quv mashg'ulotlarida pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samarali shakl va vositalari saralandi va tuzatilib borildi. qayta nazorat uchun o'tkazilgan pedagogik tajriba-sinov jarayoni ham mazkur bosqich davomida o'tkazildi.

Maqsadimiz, boshlang'ich sinf matematika darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanib barcha metod va vositalar yordamida hamda "sinov"

va “o’rgatuvchi” tajribalar asosida tanlab olingan xilma-xil o’quv mashg’ulotlarini takomillashtirish shakli bo’yicha, amalga oshirishning samaradorligini tahlil qilish edi. Shu bilan birga, har xil o’quv predmetlaridan egallangan ilmiy tushunchalarni nazorat qilishni turli o’quv predmetlaridan o’zlashtirilgan bilimlarni bir-biri bilan aloqadorlikda qo’llay olishning ko’nikma va malakalarini egallashni hamda pedagogik texnologiyalar mazmuniga ega bo’lgan vazifalardan foydalanish ko’nikmalarini o’quvchilarga puxta o’rgatishni takomillashtirish vazifasi qo’yildi.

Pedagogik texnologiyalar funktsiyalariga amal qilib darsni tayyorlash va o’tkazishda barcha umumiy talablar qo’yiladi. U g’oyaviy yo’nalganlikka ega bo’lishi kerak. Pedagogik texnologiyalarning ilmiyligi va tushunarligi o’qishning hayot bilan, nazariyaning amaliyot bilan aloqasini ta’minlashi, o’quvchilarning idrok etish faoliyatlarini faollashtirishi kerak. Pedagogik texnologiyalarka tayanib dars olib borish uslubiyoti o’quv texnikasidan, muammoli masalalardan keng foydalanishni, kitob bilan ishlashni, ko’rgazmalilikni, guruhli o’qish shakllarini nazarda tutadi. Bundan tashqari darsning amaliy mashg’ulotlari bilan, darsdan tashqari faoliyat bilan aloqasi ham zarur. Dars materiallari pedagogik texnologiyalar asosida olib boriladigan dars mazmuni va uslubiyotiga talablar asosida o’qituvchidan quyidagilarga asosiy e’tiborni qaratish lozimligini talab etadi:

- dars vazifalarini to’g’ri tanlay olishni (ta’lim-tarbiyaviy, rivojlantiruvchi);
- ob’ektlar, savollar pedagogik texnologiyalar mavjudligini o’rganishni;
- darsning o’quv-uslubiy majmuasidan, shu jumladan darsliklar va boshqa fanlar bo’yicha texnik vositalardan foydalanishni;
- mukammal topshiriqlar yordamida o’quv va idrok etish omillarini shakllantirish, shu jumladan o’quvchilarning boshqa fanlardan olgan bilimlaridan foydalanish masalalarini;
- pedagogik texnologiyalarning turlari xilma-xilligini inobatga olib uni mukammal amalga oshirishni;

- dars natijalarining sifati va samaradorligi, bilim va malakalarini oshirish, o'quvchini jamiyat talablari asosida mukammal bilimga ega va barkamol shaxs darajasida tarbiyalash.

Pedagogik tajriba-sinov natijalarini ishlab chiqish davomida ilmiy tushunchalarning o'zlashtirish darajasini va o'quvchilarning malakalarini shakllanganlik darajasini baholash uchun elementlar bo'yicha va operatsiyalar bo'yicha tahlil (tadqiqot) usullaridan foydalanildi. Negaki, mazkur usullar samarali natijalarga erishish imkoniyatini yaratadi.

Bu haqda biz ilgari surgan ilmiy farazning to'g'riligi tasdiqlandi. SHu bilan birga barcha pedagogik texnologiya xususiyatiga ega matematika darslarida o'zlashtirilayotgan ilmiy tushunchalar o'rtasidagi munosabatlar mazmunini o'zlashtirish darajasi, mazkur mazmundagi masalalarni yechish mahorati oshadi.

Eslatish, ko'rsatish, pedagogik texnologiyalarni qo'llash o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish turli shakllari kabi pedagogik texnologiyalarni amalga oshirish metodlaridan maqsadga muvofiq foydalanish tushunchalarini yanada muvaffaqiyatli o'zlashtirishga boshlang'ich sinf matematika fani bo'yicha egallagan bilimlariga nisbatan ijodiy yondoshishga, ro'y berayotgan hodisalar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'ra bilish va topish hamda ularning sabab va oqibatlarini tushuntirib berishga yordam berdi.

O'qituvchilar uchun anketalar

Fan_____. Ish tajribasi_____.

1. O'z faningiz bo'yicha darslar davomida Sizga o'quvchilarning boshqa fanlar bo'yicha egallagan bilimlariga murojaat etishga to'g'ri kelganmi? Misollar keltiring.

Dars mavzusi_____

qaysi interfaol metodlardan foydalanasiz? _____.

qaysi savollarni hal etishda?_____.

qaysi shaklda?_____.

2. Dars faoliyat jarayonida Sizga pedagogik texnologiyalardan keng foydalana olishga to'g'ri kelganmi? Misollar keltiring_____

Guruhdan tashqari ish shakli_____.

Guruh_____.

Ish mavzusi_____.

3. Pedagogik texnologiyalarni kuchaytirish maqsadida Siz dasturlarda nimalarni o'zgartirishni taklif etasiz?

4. Zamonaviy o'quvchilarni o'qitishda pedagogik texnologiyalar ahamiyatini Siz nimalarda ko'rasiz?

5. Pedagogik texnologiyalarni amalga oshirishda qanday qiyinchiliklarni his etasiz? (tanlagan javobingizning tagiga chizing):

a) Boshlan'gich sinf matematika darslarida pedagogik texnologiyalarni aniqlash bo'yicha uslubiy tavsiyalarning yetarli emasligi.

b) Mazmunan o'xshash fanlar o'qituvchilari faoliyati boshlang'ich sinf ma'muriyati va metodistlari tomonidan boshqarib borilmasligi.

v) Pedagogik texnologiyalarni amalga oshirish bo'yicha tajriba va malakalarning yetishmasligi.

6. Pedagogik texnologiyalar o'quvchilarning bilim olishga qiziqishlariga qanday ta'sir ko'rsatadi. Sizning fikringiz? (tanlagan javobingizning tagiga chizing):

a) darslarga qiziqishni rag'batlantiradi;

b) o'rganilayotgan fanga qiziqishni mustahkamlaydi;

v) mazmunan o'xshash fanlardan egallagan bilimlarni o'zaro aloqadorlikda o'rganishga qiziqishni chuqurlashtiradi.

7. Dars jarayonida pedagogik texnologiyalar ta'siri ostida bilish malakalari qanday o'zgaradi?

a) o'quv ishlardagi pedagogik texnologiyalar ta'sirida tez va oson ta'sir ko'rsatadi.

b) mazmunan o'xshash fanlarda o'rganilayotgan materialni solishtirish, umumlashtirish, tahlil qilish malakalari chuqurlashadi;

v) mahoratlari va ko'nikmalarini pedagogik texnologiyalar yuzasidagi malakalari shakllanadi;

g) baholash malakalari, ya'ni hozirgi zamon ilmiy dunyoqarash qonuniyatlarini egallash va amaliy masalalarni yechishga qator fanlardan bilimlarni tanlab olish va qo'llash malakalari shakllanadi.

Tajriba-sinov maydonlariga jalb etilgan boshlang'ich sinf o'qituvchilarining anketalarini tahlil qilishda quyidagilar aniqlandi. Hammasi bo'lib faqat boshlang'ich sinf 11 nafar o'qituvchilari anketa so'rovlarida ishtirok etdilar:

3.2. Pedagogik tajriba-sinov natijalari va uning tahlili

Pedagogik texnologiyalarning metodologik-didaktik asoslarini yoritish maqsadida boshlang'ich sinf ya'ni 4-sinf o'quvchilari bilan pedagogik tajriba-sinov ishlari olib borildi. Jami sinflarda 48 ta o'quvchi ishtirok etdi. Olib borilgan tajriba-sinov ishlari natijalarini biz amaliyot jarayonida 4 « A » va 4 « B » sinflar o'rtasida 1 yil davomida matematika fanidan kuzatuv ishlari olib bordik. Bunda 4 « A »-sinfni nazorat sinf sifatida, 4 « B »-sinfni tarjiba sinf sifatida tanladik. Tarjiba sinfda matematika darslarida pedagogik texnologiyalar foydalangan holda keng ko'lamda darslar o'tildi. O'rgatishda amaliy ishlarda interfaol metodlar, didaktik o'yinlardan, dars jarayonida amaliy ishlar yozilgan kartochkalardan, axborot texnologiyalardan foydalandik va tajriba – sinov quyidagi natijalarni berdi. F_1 – I chorak oxiridagi sifat ko'rsatkich.

Baholar Sinf	5	4	3	2	Muddat
4 "a" (29 ta)	6	8	13	2	Noyabr

$$F_1 = \frac{(6+8) * 100\%}{29} = \frac{1400}{29} = 48\%$$

Baholar Sinf	5	4	3	2	Muddat
4 "b" (19 ta)	2	8	8	1	Noyabr

$$F_1 = \frac{(2+8) * 100\%}{19} = \frac{1000}{19} = 52\%$$

O'quv yili yakuniga borib 4-sinflar quyidagi natijalarni ko'rsatdilar.
Yakuniy bosqichli nazorat ishida quyidagi natijaga erishdik.

F₂ – IV chorak oxiridagi sifat ko'rsatkich.

Baholar Sinf	5	4	3	2	Muddat
4 "a" (29 ta)	10	13	6	-	May

$$F_2 = \frac{(10+13) * 100\%}{29} = \frac{2300}{29} = 83\%$$


Baholar Sinf	5	4	3	2	Muddat
4 "b" (19 ta)	5	8	6	-	May

$$F_2 = \frac{(5+8) * 100\%}{19} = \frac{1300}{19} = 68\%$$

I chorak oxiridagi sifat ko'rsatkich.

IV chorak oxiridagi sifat ko'rsatkich.


4 « A » - sinf



I chorak oxiridagi sifat ko'rsatkich.

IV chorak oxiridagi sifat ko'rsatkich.

4 « B »- sinf



Sifat ko'rsatkichlarning farqi dastlabki nazorat va tarjiba sinov ishlari yakunida olingan nazorat ishlari bo'yicha qaralganda quyidagicha bo'ldi.

4 "A"-sinfda: $83\% - 48\% = 35\%$

4 "B" – sinfda $68\% - 52\% = 16\%$

Ko'rinadiki tajriba sinfida sifat ko'rsatkichik sezilarli o'sgan.

Demak, ilimiy tadqiqotimizda qo'yilgan gipotezamiz asoslandi.

Uchinchi bobiga xulosa

Bir necha bosqichda olib borilgan pedagogik tajriba-sinov jarayonining vazifalari hamda ushbu vazifalardan kelib chiqib bajarilgan ishlar 3-bobning mazmunini tashkil etadi. Tajriba-sinov jarayonining har bir bosqichida ma'lum bir maqsad belgilab olinib, shu maqsad asosida tuzilgan qat'iy reja va dastur bo'yicha faoliyat olib borildi. Birinchi bosqich bo'yicha tadqiq etilayotgan muammoning dolzarbligi, hozirgi kungacha o'rganilmay kelinayotganligi so'rovnomalar bo'yicha o'rganilib chiqildi va ilmiy adabiyotlarga tayanilgan holda asoslab berildi. Ikkinchi bosqichda boshlang'ich sinf matematika darslarda pedagogik texnologiyalarning xususiyatlari va darajasi pedagogik tajriba-sinov ishlari jarayonida aniqlandi, erishilgan natijalar olib borilgan ilmiy-tadqiqotimiz nuqtai nazaridan baholandi. Ushbu bosqich davomida tadqiqot muallifi tomonidan boshlang'ich sinf matematika darslarida pedagogik texnologiyalari xususiyatlari, shu asosda o'quvchilar ilmiy tushunchalarini oshirishga doir o'quv-uslubiy qo'llanma hamda metodik tavsiyanomalar yaratildi.

Navbatdagi uchinchi bosqichda tadqiqotimizda ilgari surilgan farazlarning hayotiyliigi, yangiligi, ishlab chiqilgan tavsiyalarning samaradorligi bo'yicha erishilgan natijalar umumlashtirildi. O'qituvchi va o'quvchilarning tajriba-sinov ishlari boshlanishidan oldingi va undan keyingi davrda boshlang'ich sinf matematika darslarida pedagogik texnologiyalarda o'rganish asosida ta'limni tashkil etish hamda o'quvchilarning ilmiy tushunchalarini, bilimlarini oshirish borasidagi mahoratlar dinamikasi o'rganildi. Ushbu bobda tadqiqotdagi asosiy g'oya, qarash va qonuniyatlar qat'iy ilmiy shaklni olganligi yoritildi.

